

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI
HUQUQSHUNOSLIK FAKUL'TETI**

«FUQAROLIK HUQUQI» KAFEDRASI

МАЛАКАВИЙ БИТИРУВ ИШИ.

**MAVZU: O'zbekiston Respublikasining oila qonunchiligi bo'yicha nikoh
tuzish shartlari**

**BAJARUVCHI: 4-kurs kunduzgi
bo'lim talabasi Qo'chqorova Durdona
ILMIY RAHBAR: dots. Z.Quvondiqov**

SAMARQAND – 2013

MUNDARIJA

Kirish.....	3-9
I-BOB. O'zbekiston Respublikasining oila qonunchiligi bo'yicha nikoh tuzish shartlari va ularning ahamiyati.....	10-41
1.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nikoh tushunchasi va nikox tuzishga qo'yilgan talablarning ahamiyati.....	10-24
1.2 Nikoh tuzish shartlari bo'yicha shaxsiy xarakterdagi holatlar mazmunining o'ziga xos xususiyatlari.....	25-32
1.3 Nikoh tuzish shartlari bo'yicha biologik xarakterdagi tavsiflovchi holatlarning mazmuni.....	33-40
1.4. Respublikamizda Oila qonunchiligining takomillashtirilishi.....	41-46
II-BOB. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarning umumiy tavsifi.....	47-63
2.1 Nikoh tuzish shartlari bo'yicha yakka nikohlilik tamoyilining buzilishi va uning oqibatlar.....	47-52
2.2. YAqin qarindoshlar o'rtasida tuzilgan nikoh.....	53-55
2.3. Muomalaga layoqatsiz shaxslar o'rtasida tuzilgan nikoh.....	56-63
Xulosa.....	64-65
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	66-71

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Prezident I.A.Karimov oilani mustahkamlash, yosh oilalar haqida g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, sog'lom va mustahkam oila barpo etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasidagi keng qamrovli ishlarni davom ettirish haqida to'xtalib, aynan oila bag'rida, ota-onaning o'zaro mehr-muhabbati, g'amxo'rligi muhitida farzandning dunyoga kelishi, uning shaxs va fuqaro sifatida kamol topishi, halollik, ezgulik va mehribonlik haqidagi tushunchalar, kattalarga hurmat tuyg'usi, avvalo oilada paydi bo'ladi, insonning dunyoqarashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida aynan shu muhitda shakllanadi¹, deya ta'kilab o'tgan edi.

Nikoh munosabatiga kiruvchi shaxslar amaldagi qonunlarga rioya qilgan holda nikoh tuzsalar, bunday nikohni davlat ham jamiyat ham qo'llab-quvvatlaydi. Qonuniy nikoh munosabatiga kirgan er-xotinlar o'rtasida bir vaqtning o'zida shaxsiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlar vujudga keladi, shuningdek ularning ushbu huquqlari har doim qonun bilan qo'riqlanadi. Oilaning vujudga kelishi erkak va ayolning turmush qurib, rasmiylashtirgandan boshlanadi. Oila masalasi respublikamizda nafaqat oila a'zolarining ishi, balki jamiyat va davlatning ham qiziqishidadir.

Prezident I.Karimov oila haqida gapira turib, "Oila farovonligi - millat farovonligi, SHarqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla-yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi".² Darhaqiqat, yurtboshimizning rahnamoligida oilani mustahkamlashga qaratilgan turli xil qonun va huquqiy me'yorlar qabul qilinib, izchil davlat siyosati amalga oshirilmokda.

Oilaning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy ahamiyati tobora ortib borayotganligi shubhasizdir. Darhaqiqat, oilaning faravonligi jamiyat va millat kelajagining barqarorligini ta'minlaydi.

¹ Каримов И.А.Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омилidir. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинган куннинг 18 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.-//Адолат.2010 йил, 10 декабрь.

² Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 15-йиллигига бағишланган нутқидан. "Халқ сўзи, 2007 й.

O'zbek xalqi oilalari o'ziga xos mentalitetga ega bo'lib, yuksak insoniy fazilatlarni o'zida jam qilganligi bilan ham boshqa xalqlardan ajralib turadi. Oilalarimizda milliy urf-odatlariga ehtirom, kattaga hurmat va kichikka izzat, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, mehru oqibat kabi insoniy fazilatlar yuksak qadrlanadi. SHu boisdan mustaqil O'zbekiston sobiq tuzumdan ajralgach, o'ziga xos oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998 yil 30 apreldagi qarori bilan yangi O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksini qabul qilib, 1998 yil 1 sentyabrdan amalga kiritdi.

Oila kodeksining qabul qilinishi bilan oila munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, shuningdek Fuqarolik kodeksi bilan muvofiqlashtirildi. SHuningdek, kodeks O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi sessiyasida ratifikatsiya qilingan bir qancha xalqaro huquqiy hujjatlarning muhim qoidalari bilan boyitildi.

Oila munosabatlari sohasiga taalluqli va O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro hujjatlar qatoriga 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi", 1959 yil 20 noyabrda qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konventsiya, 1919 yil Jenevada qabul qilingan va 1952 yil 28 iyunda qayta ko'rib chiqilgan "Onalikni muhofaza qilish to'g'risida"gi Konventsiya, 1966 yil 16 dekabrda qabul qilingan "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro pakt(hujjat) va boshqalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida shunday deyiladi: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega". Buning mazmunida ikki muhim jihat: ya'ni birinchidan, oilaning jamiyat oldidagi asosiy bo'g'in sifatidagi vazifalariga ega ekanligi, ikkinchidan, oilaning jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi ifodalangan.

Oila jamiyatning eng kichik bo'g'ini, jamiyatga munosabat, davlat farovonligi va uning kelgusi istiqboli avvalo oiladan boshlanadi. Oilada millat kelajagi vujudga keladi, o'sib ulg'ayadi, shuningdek unda tarix, madaniyat, ma'naviyat rivoj topadi, aslida har bir oilaga qarab, umumiy aholi haqida bir fikrga kelinadi. Keyingi vaqtlarda davlat va jamiyat oilaning muhofazasini ta'minlash haqida qator qonunlar, Farmonlar, qonun

osti hujjatlar qabul qilmoqda. Chunki oila manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan uzviy bog'liq. Bular o'z navbatida har bir oilaning farovonligini ta'minlashga, uni mustahkamlashga, yosh avlodni jismoniy va ruhiy sog'lom qilib tarbiyalashga g'oyat katta e'tibor bermoqda. Masalan, "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni¹, "Bolali oilalarni davlat tomonidan ko'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi 10.12.1996 yildagi NPF-1657-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "Sog'lom avlod davlat dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.02.2000 yildagi 46 sonli Qarori, "Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida"gi 21.09. 2000 yildagi 360-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, "Ona va bola davlat Dasturi to'g'risida"gi 5.02.2001 yildagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori² va h.k larni ko'rsatish mumkin.

O'tgan yillar davomida Respublikada oilaning mavqeini yanada ko'tarish maqsadida hattoki yillar 1997 yilning "Inson manfaatlari yili", 1998 yilning "Oila yili", 1999 yilning "Ayollar yili", 2000 yilning "Sog'lom avlod yili", 2001 yilning "Onalar va bolalar yili", 2002 yilning "Qariyalarni qadrlash yili", 2003 yilning "Obod mahalla yili", 2004 yilning "Mehr – muruvvat yili", 2005 yilning "Sihat-salomatlik yili", 2006 yilning "Xomiyalar va shifokorlar yili", 2007 yilning "Ijtimoiy himoya yili" va nihoyat 2013 yil «obod turmush yili» deb nomlanishi davlatimizda kuchli ijtimoiy siyosat olib borilayotganligi va bu borada Davlat Dasturlari qabul qilinganligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan bu g'oyalar zahirida inson taqdiri, kelajak avlod, oila turganligini ko'rishimiz mumkin.

Aynan 1998 yil "Oila yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilindi. Natijada mazkur kodeksni tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 5 iyuldagi farmoyishiga ko'ra, maxsus ishchi guruhi faoliyat yuritdi. Natijada 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan mazkur kodeks shu yilning 1 sentyabridan e'tiboran amalga kiritildi. Dastlab uning tuzilishi 8 bo'lim, 30 bob, 238-moddadan iborat edi. SHu bilan

¹Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 1997. 9-сон, 225-модда

² Ўзбекистон Республикаси Хукумат қарорлари тўплами. 2001. 68-сон, 10-модда

birgalikda Oila kodeksi turli xalqaro bitimlar va Konventsiyalar mazmun-mohiyati asosida ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi 2-qismida "Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi" deyilgan.

Oilaning asosini nikoh tashkil etadi. Oila kodeksida nikoh tuzishning qonunda belgilangan shartlari va tartibi mavjud. Yuqoridagi norma nikoh tuzishning Oila kodeksida berilgan tamoyillaridan biri hisoblanadi. Oila kodeksining 3-bobida nikoh tuzish tartibi va shartlari berilgan bo'lib, unga ko'ra nikoh FHDYO organlarida tuziladi. Nikoh tuzishda quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- nikoh tuzishning ixtiyoriyligi (Oila kodeksining 14-moddasi);
- nikoh tuzishda nikoh yoshiga amal qilishi (Oila kodeksining 15-moddasi);
- nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarning bo'lmasligi (Oila kodeksining 16-moddasi);
- nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishning majburiyligi (Oila kodeksining 17-moddasi).

Nikoh tuzishda ixtiyoriylik tamoyilini ta'minlashning huquqiy kafolatlari nikohni yuridik rasmiylashtirishda yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 13-moddasiga binoan nikoh tuzish tartibi normalangan bo'lib, unga ko'ra:

-birinchidan, nikoh tuzish uchun bildirilgan yozma rozilik (ariza nikohlanuvchi shaxslar tomonidan, ya'ni, erkak yoki ayol tomonidan bevosita yoziladi va imzolanadi) asosida namoyon bo'lishi;

-ikkinchidan, nikoh tuzish uchun ariza berilgandan keyin bir oylik muddat belgilanishi. Ushbu qonun bilan belgilangan bir oylik muddatning belgilanishidan ko'zlangan maqsad, nikohlanuvchi shaxslar nikohga erkin, ixtiyoriy, tenglik hamda o'zga shaxslarning majburlovisiz ekanligini aniqlashtirish hamda kelajak oilani mustahkamligini ta'minlashdan iboratdir;

-uchinchidan, nikoh nikohlanuvchilarning shaxsan ishtiroklarida qayd etiladi. Nikohni vakil yoki ishonchnoma orqali rasmiylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Amaliyotda nikoh tuzish muddatini qisqartirishni so'rab ariza berganlarning arizalarini ko'rib chiqish tegishli davlat idoralar tomonidan ko'rilayotgandan nikoh tuzishda shoshma-shosharlikka asos bo'ladigan holatlarning mohiyatini aniqlash lozim. SHuning uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini to'g'ri, erkin ifoda etish qobiliyatiga qanchalik ega bo'lishligini aniqlashda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idoralarining xodimlari mas'uliyat bilan yondoshishlari talab etiladi.

Oila kodeksining 14-moddasida bo'lajak er-xotinning o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi hamda nikoh tuzishga majbur qilishni taqiqlash kabi qoidalarining kiritilishi oilani mustahkamlashga qaratilgan huquqiy me'yor bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 avgustdagi 365-sonli qaroriga 1-ilova tarzida "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"gi Nizom¹ qabul qilindi. Mazkur huquqiy hujjatga ko'ra, nikohga kiruvchilar qonunda belgilangan tartibda tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart qilib belgilab qo'yildi.

Oilaviy munosabatlarda nikoh instituti, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar, nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, hamda nikoh tuzish shartlariga rioya etilmasdan tuzilgan nikohning huquqiy oqibatlarini belgilashga qaratilgan qonun normalaridagi bo'shliqlarni o'rganish va natijada muayyan fikr-mulohazalar berish mazkur malakaviy bitiruv ishining dolzarbiligini anglatadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Nikoh tuzish shartlar mavzusi yuzasidan U.SH.SHoraxmetova, H.R.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, SH.SH.SHoraxmetov, A.M.Antokol'skaya, A.Nechaeva, YA.E.Pesinlar, F.Otaxo'jaev, M.Vosiqova, G.Tansikbaeva, R.Muhamedov, T.Kochergina, SH.YUldasheva, G.Inomjonova, Z.Esanova, I.Jo'raevalar tomonidan o'rganilgan.

Mamlakatimizda nikoh va uni huquqiy tartibga solish masalalari F.M.Otaxo'jaev hamda U.SH.SHoraxmetovalar tomonidan kompleks tahlil etilganligini alohida e'tirof etish lozim. Uning asarlarida nikoh munosabatlarining umumiy jihatlari bilan bir qatorda nikoh tuzish shartlariga rioya qilmaslik oqibatlari ham tahlil qilingan².

¹ "Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати қарорлари тўплами", 2003 й., N 8, 77-модда.

² Отахўжаев Ф.М. Никоҳ ва унинг ҳуқуқий тартибга солиниши. -Тошкент: Ўзбекистон, 1995; Развитие законодательства о браке в Республике Узбекистан и проблемы его дальнейшего совершенствование. Авто-

Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari. Tadqiqot ishning asosiy maqsadi – oila huquqida nikoh tuzish tartibi va shartlarini, nikoh tuziga monelik qiladigan holatlarni va uning huquqiy oqibatlarini yoritib berishga harakat qilingan. SHu ma`noda, tadqiqotda nikohning ilmiy tushunchasini ochib berish, uning maqsadi, mohiyati va ahamiyatini ko`rsatish, nikoh tuzish shartlariga ilmiy ta`rif berish, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar mohiyatini ochish, nikoh tuzish shartlariga rioya qilinmay tuzilgan nikoh bo'yicha er-xotinlarning huquqlari va majburiyatlarini aniqlash kabi masalalar o`rganiladi, tahlil qilinadi.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari nikoh tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan ochib berish, nikoh tuzish tartibi va shartlarini tasniflash, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarning mazmun-mohiyatini qiyosiy tahlil qilish, amaldagi qonunchilikka asoslanib oila qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar berishdan iborat.

SHuningdek, nikoh institutini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Malakaviy bitiruv ishining ob`ektlari va predmeti.** Tadqiqot ob`ektini nikoh tushunchasi, nikoh tuzish tartibi va shartlari, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar, nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko`rikdan o`tkazish kabi masalalar tashkil etadi. Tadqiqotning predmetini keng ravishda nikohni haqiqiy emasligi va uning huquqiy oqibatlarini ilmiy-amaliy jihatdan o`rganish, nikohni haqiqiy emas deb topuvchi davlat organlarini faoliyatini samarali yo'lga qo'yilishini tartibga solishdan iboratdir.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi nikoh tuzish tartibi va shartlarini ilmiy tahlil qilish, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarni yoritish, nikohning haqiqiy emasligi va uning huquqiy oqibatlari kabi masalalarni hali respublikamiz miqyosida atroflicha o`rganilmaganligini inobatga olgan holda ilmiy-amaliy hamda nazariy tahlil qilindi.

SHu ma`noda tadqiqot predmeti bo'lgan nikoh tuzish instituti ham fuqarolik huquqi, oila huquqi hamda fuqarolik protsessi nuqtai nazaridan o`rganildi hamda oila

реф. дис.... докт. юрид. наук. -Ташкент: 2000; Отахўжаев Ф.М. Оила ҳуқуқи. Хотин-қизлар ва болаларнинг ҳуқуқларига оид қонун қағолатлари тўпламида. -Тошкент: Ўзбекистон, 2000; Отахўжаев Ф.М. Ўзбекистон Республикасининг Оила ҳуқуқи. -Тошкент: ТДЮИ, 2005.

qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan bir qator ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va mulohazalar ilmiy faoliyatda, huquq ijodkorligi ishlarida, oila huquqi, fuqarolik huquqi, fuqarolik jarayoni normalarini rivojlantirishda mahalliy davlat boshqaruvi va adliya, sud idoralarining amaliy ishlarida, shuningdek oila huquqi fanining o'qitish jarayonida qo'llanilishi va foydalanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi kirish qismi, ikki bob, 7 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OILA QONUNCHILIGI BO'YICHA NIKOH TUZISH SHARTLARI VA ULARNING AHAMIYATI

1.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nikoh tushunchasi va nikox tuzishga qo'yilgan talablarning ahamiyati

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin oila institutini mustahkamlash va jamiyatda kechayotgan islohotlarda uning o'rnini va ahamiyatini oshirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Binobarin, oila instituti fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy bo'g'ini bo'lib, ushbu institutni har tomonlama rivojlantirish o'z navbatida jamiyatning barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Bu borada, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Oilaning jamiyatdagi o'rnini, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab etmasdan, oilaga millat manfaatini nuqtai nazaridan yondashmasdan turib, xalqchil mafkura yaratolmaymiz"¹.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda O'zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, oilani mustahkamlash va turli imtiyozlar berish borasida bir qator muhim normativ hujjatlar qabul qilindi. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblangan oilani mustahkamlash, nikohning barqaror bo'lishi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, farzand tarbiyasida ota-onaning huquq va majburiyatlari bilan bog'liq huquqiy qoidalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 46, 63, 64, 65. 66-moddalarida, Oila kodeksi, Fuqarolik kodekslari va boshqa hujjatlarda o'z ifodasini topgan. 1997 yilning "Inson manfaatlari yili", 1998 yilning "Oila yili", 1999 yilning "Ayollar yili", 2000 yilning "Sog'lom avlod yili", 2001 yilning "Onalar va bolalar yili", 2002 yilning "Qariyalarni qadrlash yili", 2003 yilning "Obod mahalla yili", 2004 yilning "Mehr – muruvvat yili", 2005 yilning "Sihat-salomatlik yili", 2006 yilning "Xomiylar va shifokorlar yili" va nihoyat 2007 yilning "Ijtimoiy himoya yili" deb nomlanishi birinchi tomondan davlatimizda kuchli ijtimoiy siyosat olib borilayotganligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan bu g'oyalar zahirida inson taqdiri, kelajak avlod, oila turganligini ko'rishimiz mumkin.

¹ Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq etiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: Ўзбекистон, 2001. -Б.23.

Hozirgi kunda respublikamizda 26 milliondan ortiq aholi yashaydi. Ayni mahalda 6 millionga yaqin oila bo'lib, aholining 98 foizi ana shu oilalarning a'zosi.

YAngi qurilayotgan oilalarning mustahkamligi va barqarorligini hamda oilada sog'lom muhitni yaratishda amaldagi Oila kodeksiga oldin mavjud bo'lmagan "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish" (17-modda), "Nikoh shartnomasi" (29-36 moddalar) kabi bir qator institutlarning kiritilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Binobarin, mazkur normalar bugungi kunda oilaviy konfliktlarni bartaraf etishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

SHu o'rinda qayd etish lozimki, nikoh shartnomalarini tuzish tarixi ming yilliklarga borib taqaladi. Qadimgi Rim va YUnonistonda oila qurayotgan shaxslar eng avvalo, o'zlarining mulkiy munosabatlarini qanday bo'lishligi hamda kelajakda birgalikda o'rtilgan mulkni meros qoldirish bilan bog'liq masalalar to'g'risida kelishuvlar imzolaganlar. Ushbu holat xristianlik yuzaga kelgunga qadar amalda bo'lib kelgan. Keyingi davrlarda nikohga kiruvchilar o'rtasidagi "muqaddas ittifoq" faqat cherkov tomonidan rasmiylashtirilgan va tartibga solingan.

1932 yilda Mug' tog'idan topilgan nodir hujjatlar majmuasi orasidagi VII-VIII asrlarda tuzilgan nikoh guvohnomasi bizning mamlakatimizda ham nikoh shartnomasini tuzish amaliyoti ming yillar oldin mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Xususan, mazkur bitimda oila va nikoh shartlari, oilaviy mulkiy munosabatlar, nikohlanayotgan shaxslarning o'zaro va har birining ikkala tomon qarindoshlari bilan munosabatlari, ayniqsa, kuyovning kelin qarindoshlari oldidagi majburiyatlari haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlar bor. Hujjatda Uttegin ismli turk yigit bilan Dug'duncha ismli (CHata laqabli) so'g'd ayoli o'rtasida tuzilgan nikoh qayd qilingan. Bitimga asosan Uttegin sevimli va ardoqli xotin sifatida uni qabul qilib, oziq-ovqat, kiyim-kechak, zebu ziynat bilan ta'minlamoshi va hurmat-izzat qilmoshi lozim edi. O'z o'rnida Dug'duncha ham Utteginni sevimli va ardoqli er sifatida tutmoshi, uning baxtli turmushi haqida qayg'urishi va uning buyruqlarini qonun kabi bajarishi lozim edi.

Evropada nikohni rasmiylashtirish institutining qayta tiklanishi XVIII asrning oxirlari va XIX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Aynan ushbu davrda qit'ada bozor munosabatlarining rivojlanishi ushbu institutning qayta tiklanishida muhim rol o'ynadi.

Ta`kidlash joizki, bugungi kunga kelib, dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida oila qurayotgan shaxslar o'rtasida nikoh shartnomasini tuzish amaliyoti keng tarqalgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin inson huquqlari va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida tan olinishi o'z navbatida ushbu institut mamlakatimizda ham joriy etilishiga olib keldi. SHu o'rinda qayd etish lozimki, milliy huquq tizimimizda nikoh shartnomasi tuzishning huquqiy asoslari qaror topgan bo'lishiga qaramasdan, ijtimoiy voqeligimizda ushbu institut o'zining ifodasini to'liq topgan deb bo'lmaydi.

Bizningcha, nikoh shartnomasi tuzishning keng tarqalmayotganligiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

- qonunchilikda nikoh bilan bog'liq masalalar ancha keng tartibga solinganligi va buning natijasida er-xotin o'rtasidagi munosabatlarni nikoh shartnomasi asosida tartibga solishning zarurati kam deb hisoblanishi;

- nikoh shartnomasi tuzish an`analarining va bu boradagi sud amaliyotining deyarli yo'qligi;

- tegishli huquq normalarining shartnoma normalariga nisbatan ustuvorligi;

- nikoh shartnomasi – er-xotinlarning to'liq teng huquqliligini ta`minlash vositasi bo'lsada, amalda ayollar erkaklarga nisbatan muayyan ma`noda bo'ysunish holatida ekanligi;

- bir tomonning nikoh shartnomasi tuzish to'g'risidagi taklifi ko'p holatlarda ikkinchi tomonda oilaning umrbod va barqaror davom etishiga ishonchsizlik keltirib chiqarishi mumkinligi;

- oila quruvchilar ota-onalarining nikoh shartnomasini muayyan jihatdan qabul qilmasliklari.

Albatta, bunda xalqimizning o'ziga xos mentalitetini hamda oila qurayotganda uni mustahkam bo'lishi va umrbod davom etishini nazarda tutilib nikoh tuzilishini e`tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim. SHu bilan birga, turli xil ob`ektiv va sub`ektiv sabablar asosida oilaviy konfliktlar yuzaga kelayotganligini va buning oqibatida nikohni bekor bo'lish holatlari ko'payib borayotganligini kuzatishimiz

mumkin. Bunday sharoitda konfliktli jarayonning bir muncha tinch yo'l bilan kechishi, bunda tomonlarning huquq va erkinliklari ta'minlanishi, mulk bilan bog'liq muammolarni o'zaro kelishuv asosida hal etilishida nikoh shartnomasini tuzishda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash joizdir.

SHu o'rinda qayd etish lozimki, Evropa davlatlari qonunlaridan farqli o'laroq, respublikamiz qonunchiligida bunday shartnomaning faqat mulkka (mulkiy huquqlarga) nisbatan tuzilishi nazarda tutilgan. er-xotinlarning shaxsiy munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan nikoh shartnomasidagi shartlar haqiqiy emas deb topiladi.

Mazkur institutni hayotga keng tadbiq etish uchun oila qurayotgan fuqarolarni huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, bunda tegishli qonunchilik asosida er-xotin huquq va majburiyatlari, xususan, nikoh shartnomasini tuzish tartiblari, shart-sharoitlari, oqibatlari yuzasidan keng qamrovli targ'ibot ishlarini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. SHu jihatdan olganda, bu borada tegishli qo'llanmalar yaratish, "oila odobi" va "oila huquqi" kurslarini ta'lim muassasalarida o'qitish, mahallalarda tegishli tadbirlar uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Demak, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining muhim bo'g'ini hisoblangan oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, oilani jamiyat hayotidagi o'rnini hamda uning ma'naviyat va tarbiya o'chog'i sifatidagi ahamiyatini oshirish uzluksiz va tizimli jarayon ekanligini unutmasligimiz lozim.

Nikoh munosabatiga kiruvchi shaxslar amaldagi qonunlarga rioya qilgan holda nikoh tuzsalar, bunday nikohni davlat ham jamiyat ham qo'llab-quvvatlaydi. Qonuniy nikoh munosabatiga kirgan er-xotinlar o'rtasida bir vaqtning o'zida shaxsiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlar vujudga keladi, shuningdek ularning ushbu huquqlari har doim qonun bilan qo'riqlanadi. Oilaning vujudga kelishi erkak va ayolning turmush qurib, rasmiylashtirgandan boshlanadi. Oila masalasi respublikamizda nafaqat oila a'zolarining ishi, balki jamiyat va davlatning ham qiziqishidadir.

Prezident I.Karimov oila haqida gapira turib, "Oila farovonligi — millat farovonligi, SHarqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahal-

la-yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi".¹ Degan purma`no so'zlarni keltirib o'tganlar. Darhaqiqat, yurtboshimizning rahnamoligida oilani mustahkamlashga qaratilgan turli xil qonun va huquqiy me`yorlar qabul qilinib, izchil davlat siyosati amalga oshirilmokda.. Respublikamizda hozirgi kunga qator oilaviy munosabatlarni tartibga solishga va mustahkamlashga qaratilgan Prezident Farmonlari, Farmoyishlari Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilinib, izchil amalga tatbiq etib kelinmoqda.

Fuqarolar oilaviy turmush qurishda amaldagi qonunlarga rioya qilgan holda nikoh tuzsalar, bunday nikohni davlat ham, jamiyat ham qo'llab-quvvatlaydi. Oila kodeksi normalari talablariga binoan tuzilgan nikoh er-xotinlarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini, voyaga etmagan bolalar manfaatlarini, ma`muriy yoki sud tartibida qonunan himoya qilinishi kafolatlanadi. Nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan e`tiboran er-xotinlar o`rtasida huquq va majburiyatlar vujudga keladi.

Qonuniy asoslarga ko'ra nikoh tuzish bo'lg'usi er-xotin uchun ham, jamiyat uchun ham g'oyat muhim ijtimoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan holat hisoblanadi. SHu sababli ham Oila kodeksida nikoh tuzish tartibi va shartlari belgilab qo'yilgan. Ushbu talablarga, shartlarga qat`i rioya qilish vujudga kelayotgan oilani mustahkam, haqiqiy va barqaror bo'lishini ta`minlaydi. Ushbu tadqiqot ishida nikoh tuzish tartibi va shartlarining mazmuni atroflicha ilmiy tahlil etiladi. Ayni paytda ularni muayyan tizim asosida turkumlash o'ziga xos nazariy ahamiyatga egadir.

Eng avvalo, nikohga kiruvchi erkak va ayol uni yuridik fakt sifatida mustahkamlashlari, davlat ro'yxatidan o'tkazishlari talab etiladi. Nikohni davlat ro'yxatidan o'tkazishning muayyan protsessual tartibi shunchaki formal tahlil emas. Ushbu protsessual tartib muayyan bosqichlardan iborat, undagi ishtirokchilar, ular tomonidan sodir etiladigan protsessual harakatlar mazmuni, hujjatlar shakli va mazmunini aniq-ravshan belgilab qo'yilgan va bunga qat`iy rioya etish talab etiladi. Ushbu protsessual tartib quyidagi vazifalarni bajaradi:

-birinchidan, nikoh tuzuvchilarni nikohga nisbatan mas`uliyat bilan munosabatda bo'lishini ta`minlaydi, nikohga kirishishga engiltaklik bilan qarashlarni oldini oladi;

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 15-йиллигига бағишланган нутқидан. "Халқ сўзи, 2007 й.

-ikkinchidan, taraflarni puxta o'ylagan holda, shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymasdan qaror qabul qilishlarini ta'minlaydi;

-uchinchidan, nikoh tuzishda davlat ishtirokini belgilar ekan, nikohga nisbatan nafaqat yuridik fakti, balki jamiyatni yangi tuzilmasini vujudga kelishini rasmiylashtirish jarayoni sifatida e'tirof etadi;

-to'rtinchidan, er-xotin o'rtasidagi huquqiy bog'lanishni amalga oshiradi, ular o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlarga asos soladi, yangi huquqiy maqomini belgilaydi.

L.M.Pchelintsevaning ta'kidlashicha, agar nikoh davlat ro'yxatidan o'tmagan bo'lsa, er-xotinning huquq va majburiyatlari erkak va ayolning faktik er-xotinlik aloqalaridan (ular qanchalik uzoq davom etgan bo'lishidan qat'i nazar) kelib chiqmaydi. Uning fikricha, nikohni davlat ro'yxatidan o'tkazish orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

-nikoh tuzish tartibi va shartlariga rioya qilinishi ustidan nazorat qilinadi;

-erkak va ayolning oila qurishga bo'lgan shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlarini qanoatlantirib, ularning nikoh munosabatlari yuridik rasmiylashtiriladi;

- fuqarolarning nikoh holati bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lishlari orqali statistik hisobotlar yuritish, ulardan oilani qo'llab-quvvatlash va demografik davlat siyosati yuritish;

- kelgusida ro'y berishi mumkin bo'lgan nikohdan ajralish hollari qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshirish ¹ deb baholaydi.

Ushbu protsessual tartibda davlat va uning nomidan nikohni rasmiylashtiruvchi vakolatli idora alohida mavqega ega va ular almashtirilishi mumkin emas. Hech qanday jamoat uyushmalarii, diniy tashkilotlar nikohni rasmiylashtirishga vakolatli emasdir.

Nikoh tuzishning protsessual tartibi bilan bog'liq shartlaridan tashqari boshqa shartlarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

- birinchi guruhga nikohga kiruvchilarning shaxsi bilan bog'liq shartlar;

- ikkinchi guruhga nikoh tuzuvchilarning biologik holati bilan bog'liq bo'lgan shartlar hisoblanadi.

¹ Л. М. Пчелинцева. Семейное право России. - М.Норма. 2008. - 68-69-бетлар.

Nikoh tuzuvchilarning shaxsi bilan bog'liq shartlar ularning shaxsiy xususiyatlari (nikoh tuzishdan ko'zlangan maqsad, nikohga kirishda ichki iroda holati, nikohlanuvchilarni nikoh maqomi) bilan bog'liqdir.

Nikohga kiruvchilarning biologik holati bilan bog'liq shartlar, ularning salomatligi holati, ruhiy-psixologik holati bilan bog'liq muomala layoqati (aslida layoqatsizlik holati) bilan bog'liq.

Nikohlanuvchilar yaqin tug'ishgan qarindosh bo'lmasliklari to'g'risidagi talab nikoh tuzish shartlaridan biri bo'lib, u ko'proq shaxsiy xarakterga ega bo'lgan shartlardan hisoblanadi.

Oilaning vujudga kelishida erkak va ayolning turmush qurib, nikohlari davlat ro'yxatidan rasmiylashtirilgan kundan vujudga keladi. SHuning uchun nikohning qonuniy asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Oila kodeksining 13-moddasida nikoh tuzish tartibi bo'yicha 7 ta holat ko'rsatiladi. Ushbu moddaning birinchi qismida - nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlarida tuzilishi o'z ifodasini topgan.

Nikoh faqat belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bo'lsagina, er-xotinlarga nisbatan huquq va majburiyatlar keltirib chiqaradi.

Fuqarolik holati dalolatnomalari tuman va shaharlardagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlarida qayd qilinadi.

Boshqa joylarda, masalan shaharcha, qishloq va ovullarda esa, fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollari) tomonidan qayd etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yoki vaqtincha yashovchi fuqarolarining fuqarolik holati dalolatnomalari, shu jumladan nikoh ham konsul tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asosan qayd etiladi¹.

Bu qoidaning mazmunidan shu narsani anglash mumkinki, respublika hududidagi boshqa davlat organlarining (masalan, vazirlik, qo'mita va h.k.) bergan turli xildagi ma'lumotnomalari hech qanday huquqiy ahamiyatga ega bo'lmaydi va ular nikohni qayd qilganlik haqidagi guvohnomaning o'rnini bosa olmaydi. Demak, nikohni

¹ Ж.Расулев. Консуллик хизмати томонидан фуқаролик ҳуқуқларини ҳимоя қилиш. Номзодлик дисс. Автореферати. Т. 2003 й.

qayd etish haqidagi guvohnoma o'z navbatida nikoh tuzilganligini tasdiqlovchi dalil bo'lib ham hisoblanib, yuridik faktlarni vujudga keltirishga, o'zgartirishga va bekor qilishga xizmat qiladi. SHuning uchun ham nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnoma yuzasidan nizolashilmaydi va uni haqiqiy emas deb hisoblashga qonun yo'l qo'ymaydi.

Nikoh tuzishning yana muhim ahamiyatlaridan biri, yuqorida qayd qilinganidek, er-xotin va bolalarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligidir. Qonuniy asoslarga binoan tuzilgan nikoh er-xotinlar uchun Oila kodeksining 18-28-moddalarida belgilangan shaxsiy huquq va majburiyatlarini vujudga keltiradi

Fikrimizcha, nikoh tuzish tartibi va shartlariga asosan tuzilgan nikohning mohiyati yana shundan iboratki, bunga ko'ra, er yoki xotin tomonidan qonunlarning buzilishi, er-xotindan loaqal bittasi ro'yxatga olingan yana boshqa bir nikohda turganligini oldini oladi, nikoh tuzish to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni aniqlashga va shu bilan davlatni oilalarga beriladigan turli imtiyozlarni to'g'ri yo'lga qo'yishga va boshqa masalalar bo'yicha aniq ish yuritishga yordam beradi.

Oila kodeksi 13-moddasining 2-qismida diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy jihatdan ahamiyatsiz ekanligi haqida qisqa va tushunarli ko'rsatma berilgan.

O'z kuchini yo'qotgan 1969 yildagi Nikoh va oila kodeksining 14-moddasi 3-qismida diniy marosimlar asosida tuzilgan nikoh, muayyan holatlarda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuzilgan nikohga tenglashtirilishi ko'rsatilgan edi.

Amaldagi Oila kodeksida diniy rasm-rusumlarga binoan hozirgi davrda tuzilgan nikoh huquqiy oqibat tug'dirmasligi haqida belgilangan bo'lsa-da, biroq yuqoridagi Farmon va Oliy sud Plenumining qarori mazmuniga ko'ra, o'tmishda diniy rasm-rusumga binoan tuzilgan nikoh huquqiy oqibat vujudga keltirishga yo'l qo'yiladi. Ushbu norma o'tgan asrning 30-yillarida xalqimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati-etarli darajada bo'lmagan va diniy rasm-rusumlar keng avj olgan davrda nikohlangan er-xotinlar qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy asoslar ekanligini unutmaslik lozim.

Oila kodeksining 13-moddasi 3-5-qismlari nikoh tuzish muddatlariga bag'ishlangan bo'lib, bu qoidalariga:

1) nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach shaxsan ularning ishtirokida amalga oshirilishi belgilangan. Bu qoidaning 1969 yilgi Nikoh va oila kodeksiga nisbatan ijobiy jihati shundan iboratki, amaldagi Kodeksga "shaxsan ularning ishtirokida amalga oshirishlik" degan so'zlarni kiritilishi er-xotinning nikoh tuzish masalasiga jiddiy e'tibor berish lozimligidan, bunday ishlarda vakillik institutining tatbiq etilmasligidan, er-xotinlik munosabatlari shaxsiy munosabat ekanligidan va shu bilan ularning jismoniy, ruhiy holatlarini ham aniqlashga imkon tug'dirishdan dalolat beradi.

Qonunda nikoh tuzish tartibi bo'yicha taraflarga bir oylik muddat berilgan.

L.Pchelintseva Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik holati dalolatnomalari to'g'risidagi qonunining 27-moddasi 3-qismiga ko'ra FHDYO organi yoki nikohga kiruvchilar arizasiga ko'ra nikohni qayd ettirish muddati 1 oydan keyin emas, balki 2 oygacha qilib uzaytirilishi mumkinligi haqida fikr yuritib, quyidagi holatlar asos bo'lishini ko'rsatadi:

- a) nikohga kiruvchi shaxslardan biri kasalxonada davolanayotgan bo'lsa;
- b) nikohga kiruvchi shaxslardan biri xizmat safariga safarbar qilingan bo'lsa;
- v) nikoh tuzishga monelik qiluvchi holatlar mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish, aniqlash zarurati mavjud bo'lsa¹.

Fikrimizcha, yuqoridagi mazmundagi normani O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 13-moddasida belgilab qo'yish o'rinli bo'lur edi. Agar uzrli sabablar bo'lsa, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy muddat o'tgunga qadar xam nikoh tuzishga ruxsat berishligi ko'rsatib o'tilgan. Xuddi shu qoida 1969 yilgi Nikoh va oila kodeksining 15-moddasi 2-qismida vakolatli shaxslar tomonidan belgilangan bir oy muddat o'tmasdanoq, nikoh tuzishga ruxsat berish mumkinligi ko'rsatilgan edi. Amaldagi Oila kodeksida esa bunday huquq faqat fuqarolik holati dalolatnomalari qayd qilish organiga berilgan. Oila kodeksining 203- moddasida esa fuqarolik holati dalolatnomalari tuman va shaharlardagi fuqarolik holati dalolatnoma-

¹ Л.М. Пчелинцева. Семейное право России. -М.: -Норма.- 2008.-71-б.

larini yozish bo'limlarida qayd qilish bilan bir qatorda shaharcha, qishloq va ovullarda fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollari) tomonidan ham qayd qilinishi mumkinligi ko'rsatilgan. SHuning uchun Oila kodeksining 13-moddasi 4-qismiga "... va yoxud shaharcha, qishloq va ovullarda fuqarolik yig'ini raislari (oqsoqollari) tomonidan..." degan qo'shimcha kiritilishi Oila kodeksining 203- moddasi mazmuniga muvofiq bo'ladi, degan fikrdamiz.

Bundan tashqari, ushbu huquqiy me'yorda "uzrli sabablar bo'lganda..." degai qoida berilgan. Bu huquqiy me'yorni to'liq mazmuni 1969 yilgi Nikoh va oila kodeksida va amaldagi Oila kodeksida ham ochib berilmagan, ya'ni qaysi holatlarni "uzrli" deb hisoblash mumkinligi qat'i belgilab qo'yilmagan.

Fikrimizcha, ushbu holatga aniqlik kiritish ma'nosida 13-moddaning 5-qismiga e'tibor berilsa, yuqoridagi savollarga javob topganday bo'lamiz. Bu qoidada "alohida hollar (homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafni kasalligi va boshqalar)da nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkinligi" belgilangan.

Bu huquqiy me'yor amaldagi Oila kodeksiga kiritilgan yangi qoidalardan hisoblanib, uning kiritilishiga inson manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, zarur hollarda nikohni ariza berilgan kuniyoq tuzilishi, ayniqsa bizning sharqona urf-odatlarimizga e'tibor berish (homilasi aniq bo'lgan qizning sha'ni, qadr-qimmatiga putur etkazmaslik, ko'pchilik o'rtasida sharmandai-sharmisor qilmaslik) maqsadini ko'zlanishini ta'kidlash lozim.

Bu qoidaning qonunchilikka kiritilishi Oila kodeksining yangi jihatlaridan ekanligini qayd qilish kerak. SHu bilan bir qatorda, yuqorida ko'rsatib o'tilgan 13-modda mazmunan to'la mukammal degan fikrdan yiroqmiz, uning 4-5-qismlarini to'ldirish maqsadida quyidagi taklif va mulohazalarni ilgari surmoqdamiz:

- agar nikohni qayd qildirish uchun ariza berganlar amalda uzoq vaqt birga amaliy nikoh munosabatlarida yashagan bo'lsalar;
- nikohni qayd qildirish uchun ariza bergan erkak va ayolning o'rtasida umumiy farzandlari bo'lsa;
- ariza berganlardan biri uzoq, muddatga xizmat safariga yoki tez-tez kelib turiishi mumkin bo'lmagan joyga borishi lozim bo'lsa;

- kuyov yoki kelinning yaqin qarindoshlaridan biri og'ir kasal bo'lsa;
- ariza bergan kuyov Qurolli kuchlar safiga chaqirilgan bo'lsa va h.k.

Nikohni qayd qiluvchi FHDYO organi mudirasi har bir holatni alohida nazardan o'tkazishi va "uzrli sabablar" degan so'z ma'nosi cheklangan bo'lmasdan amaliyotda yanada boshqa holatlar uchrashi mumkinligiga, keltirilgan holatlar ro'yxati taxminiy ekanligini anglashi lozim.

Amaliyotda, nikohni qayd qiluvchi FHDYO organi mudirasi nikoh tuzish muddatini qisqartirish haqida berilgan arizaga har ikki taraf (ya'ni kelin-kuyov) tomonidan birga imzo qo'ygan holatlarga e'tibor bermasligi tufayli, nikoh tuzish jarayonida ayrim kelishmovchiliklarning kelib chiqishiga asos bo'lmoqda.

I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Xususan fuqarolarning manfaatlari va huquqlarini sud orqali himoya qilish sohasini mumkin qadar kengaytirish darkor. Vaholanki, ayrim tarmoq, qonunlarida huquqlari poymol etilgan fuqarolarning shikoyatlarini sudlov yo'li bilan emas, balki ma'muriy yo'l bilan ko'rib chiqish tartibi ham uchraydi.

Albatta, bu holat, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ga va bizning Konstitutsiyamiz talablariga zid. Fuqaro, agar uning qonuniy manfaatlari va xaq-huquqlari poymol etilgan taqdirda, har qanday masala bo'yicha himoya uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lmog'i darkor"¹.

YUrtboshimizning fuqarolarning xaq-huquqlari poymol etilgan taqdirda, ular ma'muriy organlarga emas, sud himoyasida bo'lishlari lozimligi haqidagi ko'rsatmalari qonunlarimizda o'z aksini topishi lozim.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi nikohni ro'yxatga olishni rad etganda shikoyat bilan bevosita sudga yoki rad javobi bergan mansabdor shaxslarning bo'ysunishiga ko'ra, yuqori turuvchi organga murojaat qilish mumkinligi 1969 yilgi Nikoh va oila kodeksida alohida qoida sifatida berilmagan edi. Ushbu qoida ilgari Grajdanklik protsessual kodeksida alohida tartibda ko'riladigan ishlar turkumiga kiritilib, "Fuqarolik holati aktlarini qayd qilish daftaridagi yozuvlarning noto'g'riligini belgilash to'g'risida"gi ishlar GPKning 270-moddasi 6-bandida berilgan edi. Bundan

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. –Т.: Ўзбекистон. 1995. -23-24-бетлар.

tashqari, GPKning 298-moddasida “Agar fuqarolik holati aktlarini qayd qilish organlari huquq haqida biron nizo bo’lmasa ham yozuvga tuzatish kiritishni rad etgan bo’lsalar, fuqarolik holati aktlari daftaridagi yozuvlarning noto’g’riligini belgilash to’g’risidagi ishlarni sud tomonidan ko’rilishi” belgilangan¹.

Bu qoidaning mazmunidan va protsessual qonunchilik tizimidan shu narsa ma’lumki, fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlaridagi noto’g’riliklarni belgilash alohida tartibda ko’riladigan ishlar turkumiga kiritilishiga asos bunday turkumdagi ishlarda manfaatdor qarama-qarshi taraflar ishtirok etmaydilar va ular o’rtasida nizo bo’lmaydi, shu sababli ham bunday ishlarni da’vo tartibida ko’rib bo’lmaydi.

Fuqarolik ishlarini alohida tartibda ko’rish boshqa turdagi ish yuritishlardan da’vo talablarining, taraflarning-da’vogar va javobgarlarning bo’lmasligi, bunday ishlarda faqat “arz qiluvchi” shaxsning ishtirok etishi va ishda “nizoning” bo’lmasligi bilan farqlanadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi nikohni ro’yxatga olishni rad etganda shu organ xodimi bilan nikohlanuvchilar o’rtasida qandaydir kelishmovchiliklar vujudga kelishi va ularning asossiz xatti-harakatlari tufayli nikoh ro’yxatga olinmaganligi, manfaatdor shaxsning xizmat vazifasidan kelib chiqishligi sababli bunday turkumdagi ishlarni amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksida alohida tartibda yuritiladigan ishlar turkumidan davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo’yicha ish yuritish bo’limiga o’tkazilib to’g’ri va maqsadga muvofiq echimga erishilgan.

Oila kodeksining 13-moddasi 7-bandi shu kodeksning 203-moddasida berilgan mazmunda kengroq sharhlanganda shaharcha, qishloq, ovullarda ham fuqarolar yig’ini raislari (oqsoqollari) tomonidan ham nikoh tuzishi e’tiborga olinsa, nikohni ro’yxatga olishni rad etgan mansabdor shaxslar ustidan ham sudga shikoyat berish mumkinligini nazarda tutilishi lozim.

Nikohni ro’yxatga olish rad etilganda manfaatdor taraf shikoyat bilan bevosita sudga yoki bo’ysunishiga qarab yuqori turuvchi organga murojaat qilishi mumkinligi

¹ Ўзбекистон Республикаси Гражданлик процессуал кодекси. -Т.: Адолат. 1993. 251-б.

to'g'risidagi qoida amaliyotda chalkashliklarga sababchi bo'lishi mumkin, chunki agarda fuqaro bevosita sudga murojaat etsa, shikoyat xaqida tegishli nikohni qayd qiluvchi organ xodimlari o'z vaqtida xabardor bo'lmasliklari mumkin. Fikrimizcha, manfaatdor shaxslar Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan shikoyat qilish tartibiga rioya etsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi. FPKning 322-moddasiga binoan, birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarori ustidan shikoyat va protest apellyatsiya instantsiya sudi nomiga yozilishi, lekin hal qiluv qarori chiqargan sudga berilishi ko'rsatilgan (FPKning 322 -moddasi).

Ushbu qoidaga amal qilib, nikohni ro'yxatga olishni rad etganda shikoyat tegishli fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi orqali sudga yoki bo'ysunishiga ko'ra yuqori turuvchi organga yuborilgan taqdirda, ortiqcha yozishmalarga yo'l qo'yilmagan bo'ladi. Bundan tashqari, tegishli fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qiluvchi mansabdor shaxs o'zining bu boradagi fikr-mulohazalari va nikohni ro'yxatga olishni rad etganlik sabablari haqida tushuntirishlar bilan sudga yoki bo'ysunishiga qarab yuqori turuvchi organga murojaat etishga imkoniyat berilgan bo'ladi.

Nazarimizda, qonunchilikka bo'ysunishga qarab yuqori turuvchi organ qaysi ekanligini ko'rsatish ijobiy natija beradi, chunki fuqarlarni buzilgan xaq-huquqlari o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra bir qator organlar: sud(fuqarolik ishlari bo'yicha, xo'jalik sudi, hakamlik va xolislik sudlari), prokuratura organlari orqali himoya qilinishi mumkin.

Fikrimizcha, amaldagi FPKning 274-moddasiga 3-qism sifatida yangi qoida kiritishni va uni quyidagicha ifodalanishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

“Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi nikohni ro'yxatga olishni va boshqa qonunlarda belgilangan ishlar bo'yicha rad etish to'g'risidagi ishlar sudda shikoyatchi va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarining vakili ishtirokida ko'rib chiqiladi”.

Demak, nikohni ro'yhatga olish rad etilganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi, shaharcha, qishloq va ovullarda fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollari) g'ayriqonuniy harakatlariga nisbatan ariza berish orqali alohida tartibda

ish yuritish turi bo'yicha emas, balki, shikoyat berish, prokuror protest keltirish, ya'ni FPKda belgilanganidek, davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish tartibida ko'rib hal etilishi lozim. Amalda bu yangi qoidani qanchalik asosli ekanligini sud amaliyotini umumlashtirish orqali oson aniqlash mumkin.

Nikoh tuzishning amaldagi tartibini o'rganish asosida quyidagi xulosalarga keldik:

- birinchidan, nikohni davlat organida yoxud o'zini o'zi boshqarish organlarida qayd etilishi ushbu yuridik faktni aniq va ishonchli qayd etilishini ta'minlaydi;

- ikkinchidan, mavjud tartibda ortiqcha formal talablar byurokratik to'siqlar mavjud emas;

- uchinchidan, nikoh tuzish tartibi nikohga kiruvchilarni shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymasdan, bir-biriga nisbatan o'z xis-tuyg'ularini aniq va ishonchli anglab etish orqali qarorlar qabul qilishga imkon beradi;

- to'rtinchidan, nikohni shaxsan va ixtiyoriylik asosida tuzish kafolati nikohni haqiqiy va mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi;

- beshinchidan, nikoh tuzishdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tish nafaqat bo'lg'usi er-xotin salomatligini, balki ulardan tug'iladigan farzandlar salomatligi va barkamolligini ta'minlaydi;

- oltinchidan, nikoh tuzish tartibi shaxsiy manfaatlarni, hamda davlat va jamiyat manfaatlarini o'ziga xos huquqiy kafolati vazifasini bajaradi.

Albatta, bunda xalqimizning o'ziga xos mentalitetini hamda oila qurayotganda uni mustahkam bo'lishi va umrbod davom etishini nazarda tutilib nikoh tuzilishini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim. SHu bilan birga, turli xil ob'ektiv va sub'ektiv sabablar asosida oilaviy konfliktlar yuzaga kelayotganligini va buning oqibatida nikohni bekor bo'lish holatlari ko'payib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bunday sharoitda konfliktli jarayonning bir muncha tinch yo'l bilan kechishi, bunda tomonlarning huquq va erkinliklari ta'minlanishi, mulk bilan bog'liq muammolarni o'zaro kelishuv asosida hal etilishida nikoh shartnomasini tuzishda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash joizdir.

SHu o'rinda qayd etish lozimki, Evropa davlatlari qonunlaridan farqli o'laroq, respublikamiz qonunchiligida bunday shartnomaning faqat mulkka (mulkiy huquqlarga) nisbatan tuzilishi nazarda tutilgan. er-xotinlarning shaxsiy munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan nikoh shartnomasidagi shartlar haqiqiy emas deb topiladi.

Mazkur institutni hayotga keng tadbqiq etish uchun oila qurayotgan fuqarolarni huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, bunda tegishli qonunchilik asosida er-xotin huquq va majburiyatlari, xususan, nikoh shartnomasini tuzish tartiblari, shart-sharoitlari, oqibatlari yuzasidan keng qamrovli targ'ibot ishlarini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. SHu jihatdan olganda, bu borada tegishli qo'llanmalar yaratish, "oila odobi" va "oila huquqi" kurslarini ta'lim muassasalarida o'qitish, mahallalarda tegishli tadbirlar uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Demak, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining muhim bo'g'ini hisoblangan oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, oilani jamiyat hayotidagi o'rnini hamda uning ma'naviyat va tarbiya o'chog'i sifatidagi ahamiyatini oshirish uzluksiz va tizimli jarayon ekanligini unutmasligimiz lozim.

1.2 Nikoh tuzish shartlari bo'yicha shaxsiy xarakterdagi holatlar mazmunining o'ziga xos xususiyatlari

Huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini qurish bizning asosiy maqsadimiz ekan, shunday jamiyatni, davlatni qurishda, ravnaq toptirishda oilaning o'rni beqiyosdir.

Nikoh oilaning vujudga kelishidan birdan-bir asos, omil bo'lib xizmat qiladi. Nikoh munosabatlari qanchali sof, erkin, ixtiyoriy, shuningdek davlat tomonidan qo'yilgan talablarga monan ravishda tuzilsa, albatta, shu oilaning mavqei, obro'i, shuningdek ushbu oila voyaga etib kelayotgan farzandlar ham komil inson bo'lib etishadilar.

Oila kodeksining tegishli moddalarida ayol huquqi va uning xuquqiy muhofazasi belgilab o'tilganki, albatta bunga qonuniy asos bilan birga milliy qadriyatlarga tayanish ham aks etganligini anglashimiz mumkin.

Masalan, Oila kodeksining 19-moddasi oilada er va xotinning teng huquqlaridan foydalanishi va teng majburiyatlarga egaligi kafolatlangan. Xotin-qizlar siyosiy masalalarda erkaklar bilan teng huquqqa ega bo'lganlaridek, oilada ham barcha shaxsiy va mulkiy masalalarda erkaklar bilan teng huquqlardan foydalanadilar va bab-barovar majburiyatlarga egadirlar. Amaldagi qonunlar turmushga chiqqan ayolning muomala layoqatini cheklamaydi. Uni eriga buysundirib, qaram qilib ham qo'ymaydi. er-xotin umumiy xo'jalik ishlarini birgalikda, o'zaro hamjihatlik asosida olib boradilar. Ular bir-birlariga ma'naviy yordam berib, ko'makdosh bo'lib yashaydilar, hamma masalalarni bamaslahat hal qiladilar. Biroq er-xotindan birining shaxsiy huquqini amalga oshirishga muntazam halaqit qilish (erning yoki xotinnig mashg'ulot turiga, kasb tanlashiga halal berish), shaxsiy huquqlarini amalga oshirishni suiiste'mol qilish, shuningdek oila manfaatlariga qarshi qaratilgan hatti- harakatlar salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ushbu asosiy qoida avvalom bor nikoh tuzishda muhim tamoyildir. Chunki bunda ayollar o'z hohish irodalarini majburiy ravishda emas, balki erkin ravishda nikoh tuzish, oilada teng huquqqa ega bo'lish va o'zlariga tegishli huquqni to'g'ri amalga

oshirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirishda zaruriy garov hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida farzandlarni to'g'ri tarbiyalash, ularni farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 16-modda 2-bandida¹, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63-modda 2-qismida nikoh tuzish ixtiyoriy ekanligi, nikoh faqat nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina tuzilishi mumkinligi² normalanadi.

Nikoh tuzishda ixtiyoriylik tamoyilini ta'minlashning huquqiy kafolatlari nikohni yuridik rasmiylashtirishda yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 13-moddasiga binoan nikoh tuzish tartibi normalangan bo'lib, unga ko'ra:

-birinchidan, nikoh tuzish uchun bildirilgan yozma rozilik (ariza nikohlanuvchi shaxslar tomonidan, ya'ni, erkak yoki ayol tomonidan bevosita yoziladi va imzolanadi) asosida namoyon bo'lishi;

-ikkinchidan, nikoh tuzish uchun ariza berilgandan keyin bir oylik muddat belgilanishi. Ushbu qonun bilan belgilangan bir oylik muddatning belgilanishidan ko'zlangan maqsad, nikohlanuvchi shaxslar nikohga erkin, ixtiyoriy, tenglik hamda o'zga shaxslarning majburlovisiz ekanligini aniqlashtirish hamda kelajak oilani mustahkamligini ta'minlashdan iboratdir;

-uchinchidan, nikoh nikohlanuvchilarning shaxsan ishtiroklarida qayd etiladi. Nikohni vakil yoki ishonchnoma orqali rasmiylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

F.M.Otaxo'jaev nikohni qayd etish muddatini uzaytirish nikohlanuvchilarning birgalikdagi arizalariga binoan ko'rib chiqilishini, ayrim hollarda etarli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, shuningdek, FHDYO organining tashabbusi bilan uzaytirishi mumkinligini hamda bu muddat uch oydan oshmasligi lozim, - degan fikrni bildiradi³.

¹ Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси.-Т. :- Ўзбекистон. -1998й.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.:Ўзбекистон.-2012 й.

³ Ф.М.Отаҳўжаев. Ўзбекистон Республикасининг Оила ҳуқуқи.-Т.: -2005.-95 б.

Fikrimizcha, bu erda F.M.Otaxo'jaev to'g'ri va asosli fikr-mulohazalarni ilgari surgan. Chunki nikohlanuvchi shaxslar ayrim hollarda qonun bilan belgilangan bir oylik muddat davomida bir-birlari to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lmasliklari, ayrim hollarda esa ularning oilaviy sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan salbiy holatlar yuzaga kelishi va uning natijasida nikoh tuzilmay qolishi mumkin. Biz ham F.M.Otaxo'jaevning fikrlariga to'la qo'shilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 13-moddasiga quyidagi qo'shimcha kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

13-modda to'rtinchi qismdan so'ng, beshinchi qism qism sifatida, nikohlanuvchi shaxslarning iltimosiga binoan belgilangan bir oylik muddat uch oygacha uzaytirilishi mumkin. 13-moddaning beshinchi qismi esa o'z navbatida oltinchi qism bo'lib hisoblanadi.

Oila kodeksining 14-moddasida belgilanishicha, nikoh tuzish ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi lozim. Nikoh, erkak bilan ayol o'rtasidagi tenglik va o'zaro hohish asosida tuzilgan erkin ittifoq bo'lib, maqsadi oila qurish, farzand ko'rish, ularni jamiyatning munosib kishilari qilib tarbiyalashdan iboratdir. Nikohlanuvchilarning o'zaro roziligi nikoh tuzishning muhim shartlaridan biridir.

Nikohning erkin tuzilishi uchun berilgan rozilik chinakam bo'lishi lozim; u qo'rqitish, zo'rlik, aldash yoki nikohlanuvchilarga ruhan ta'sir etilgan holatda majbur qilish taqiqlanadi. Tajribada bunday holatlar ko'proq tor dunyoqarash oqibatidan kelib chiqadi. eski urf-odatlardan xalos bo'lmagan shaxslar ko'p hollarda qizlarning roziligini olmay, oldindan fотиha qiladilar, qalin puli oladilar, yoshlarni sevmagan kishisiga turmushga chiqishga majbur qilib, ularning baxtiga zomin bo'ladilar. Bunday holatlar ko'pincha eskilik sarqitlari, turli xil salbiy qarashlar ongida chuqur o'rtnashib qolgan kishilar o'rtasida uchraydi. Zo'rlash, qo'rkitish, aldash kim tomonidan - nikohga kiruvchilardan biri, ota-onasi, qarindosh urug'lari tomonidan sodir etilgan bo'lmasin, baribir nikohni haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'ladi, shuningdek mazkur holatlarni sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga ham asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi 136-moddasida belgilanishicha: «Ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur

qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'irlash, shuningdek ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilish – eng kam ish haqining 25 baravarigacha miqdorda jarima yoki 3 yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud 6 oygacha qamoq jazosi bilan yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish idoralarida tuziladi. Nikohni tegishli davlat organida qayd etishlik, uning vujudga kelganligini isbotlovchi birdan-bir dalildir. Bunday talab qo'yilishidan asosiy maqsad shundan iboratki, boshqa yo'llar bilan, masalan, diniy marosimlarga binoan yoxud mahalliy urf-odatlariga amal qilingan holda tuzilgan nikoh yuridik ahamiyatga ega emas. Diniy yo'l bilan tuzilgan nikoh bu nikohga kiruvchilarning shaxsiy e'tiqodiga bog'liq bo'lib, ularning nikohi faqat qonuniy tarzda rasmiylashtirilganidan keyingina sha'riy rasm-rusumlarga amal qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Qonunda nikoh tuzuvchilar ariza berganlaridan so'ng bir oy muddat o'tgach nikoh tuzilishi belgilangan. Bunday muddatni belgilashdan maqsad yoshlarning bir-birlari bilan yaxshi tanishib olishlari uchun imkoniyat yaratish, shuningdek engiltaklik qilib, shoshma-shosharlik bilan nikohdan o'tishlariga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Bir oylik muddat ichida ular bir-birlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 avgustda qabul qilingan «Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi» 365-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, yoshlarning tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi ushbu bir oylik muddatda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

SHuni yana alohida ta'kidlash zarurki, 1969 yilgi O'zSSRning Nikoh va oila kodeksi 17-moddasida nikoh tuzish uchun nikohlanuvchilarning faqatgina o'zaro roziliklari talab qilingan bo'lsa, amaldagi Oila kodeksida ushbu masalaga kengroq va chuqurroq yondoshilinganligini ko'rish mumkin. Oila kodeksida nafaqat nikoh tuzishning ixtiyoriy ekanligi, balki bo'lajak er-xotinlarning o'zaro roziliklarini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishlari va nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanishi normalanadi.

Oilalarning huquqining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan tamoyil nikoh tuzishning ixtiyoriylik tamoyilidir. Ushbu tamoyilga og'ishmay amal qilish, kelajak oilaning mus-

tahkamligi va uni baxtli hayot kechirishi oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va o'zaro hurmat, hamjihatlikda bo'lishi, boshqa biron-bir kishining oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'ymasligi uchun bo'lajak er-xotinlar nikoh tuzishni puxta o'ylab, o'z xohish-ixtiyorlariga asoslangan holda tuzishlari lozimligini poydevori va asosi deb hisoblash mumkin. Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi uning asosiy shartlaridan bo'lish bilan uni erkin va tenglik tamoyili asosida vujudga kelishini, oilani barqaror va mustahkam bo'lishini ham ta'minlaydi.

L.M.Pchelintsevaning ixtiyoriylik asosida nikohga kirish xususida ijobiy fikrlar bildirilsa-da, lekin u nikohga ariza berayotgan shaxslardan biri o'zining nikohga kirishi uchun roziligi bildirilgan arizani notarial tartibda qonun hujjatlariga muvofiq taqdim qilishi mumkinligini ko'rsatadi¹.

Fikrimizcha, L.M.Pchelintsevaning fikrlari bahs talab. Chunki nikohni ixtiyoriylik asosida qurish kelajakda oilaning mustahkamligini ta'minlaydi. Nazarimizda, nikohlanuvchi shaxslar albatta nikohga kirish uchun beriladigan arizani bevosita nikohlanuvchi shaxslar tomonidan berilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki nikoh har ikkala nikohlanuvchi shaxslarning erkin-irodalariga, xohish-istaklariga rioya qilingan holda tuzilsa, kelajakda vujudga keladigan oila mustahkam va barqaror bo'ladi.

Nikohni erkin tuzilishi uchun berilgan rozilik haqiqiy bo'lishi, u qo'rqitish, zo'rlash, aldash orqali yoki nikohlanuvchilarning biri yohud har ikkisiga ruhan ta'sir qilish yo'li bilan tuzilishi taqiqlanadi².

Amaliyotga murojaat qiladigan bo'lsak, shunday holatning guvohi bo'lishimiz mumkin. Fuqaro Tolipov A. va fuqaro Narzieva X.lar 2006 yilning 18 fevralida Toshkent shahar YUnusobod tumani 1-sonli FXDYO organida nikohlarini rasmiylashtiradilar. Ularning nikohlari rasmiylashtirilganidan keyin bir oy ichida fuqaro Narzieva YUnusobod tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudiga murojaat qilib, Tolipov A. bilan tuzilgan nikohlarini haqiqiy emas deb topish to'g'risida da'vo ariza bilan murojaat qiladi. Da'vo arizada, Narzieva ularning nikohi ixtiyoriysizlik asosida ota-onasining qistovi bilan tuzilganligini ko'rsatib o'tadi. Ushbu holat bo'yicha sud

¹ Л.М.Пчелинцева. Семейное право России. -5-е издание. -М.:Норма. -2008. -59 б.

² Ўзбекистон Республикаси Оила кодексига шарҳлар. -Т.: Адолат. 2000. 43-бет.

Narzieva X.ning talabini hamda keltirilgan asoslar o'rinli ekanligini inobatga olgan holda, fuqaro Tolipov va Narzievalarning nikohini haqiqiy emas deb topadi, hamda Narzievaning ota-onasini ham jinoiy javobgarlikka tortish haqida jinoyat ishlari bo'yicha YUnusobod tuman sudiga ish materiallari yuzasidan taqdimnomani jo'natadi¹.

YUqorida ta'kidlaganimizdek, nikohlanuvchi shaxslarga beriladigan bir oylik muddatni uch oygacha uzaytirish, nazarimizda ijobiy natija beradi. Hamda nikohlanuvchi shaxslarning nikohga kirish yoki kirmasliklarini, ularning nikohi sof yoki soxta ekanligini ham aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ayrim hollarda amaliyotda tuzilgan nikoh tuzish ixtiyoriylik asosida tuzilgan bo'lsa-da, biroq, keyinchalik bu "ixtiyoriylik" qo'rqitish, zo'rlash, aldash, mansabni suiiste'mol qilish, bir tarafning ikkinchi tarafga boqimandaligi kabi holatlar asosida tuzilganligi ma'lum bo'ladi. Ko'pchilik hollarda ushbu tazyiqlar asosiga ayollar duchor bo'lmoqdalar hamda nikohdan ajralish masalasi bilan sudga murojaat etadilar. Bunday hollarda sud ishni nikohdan ajratish tartibida emas, balki nikohni haqiqiy emas deb topish tartibida ko'rish bilan aybdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish masalasini ko'rib, hal etishi kerak bo'ladi.

Fikrimizcha, nikohni haqiqiy emas deb topishda sudlar tomonidan ko'rilyotgan masalalarni umumlashtirib, qonun analogiyasi qoidalari bilan ishni hal etishlari lozim.

Oila kodeksi normalarida va boshqa oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun osti hujjatlarida, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlarida ham nikoh tuzish uchun ixtiyoriylik tamoyilining buzilishi bo'yicha tegishli qonun hujjatlari mavjud emas.

Nazarimizda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining nikohni haqiqiy emas deb topish bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarida bevosita nikoh tuzish uchun talab qilinadigan ixtiyoriylik tamoyili xususida batafsil ta'rif berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki ushbu holat fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning ham ish faoliyatini normal tarzda yo'lga qo'yish uchun asos bo'lib xizmat qilar edi.

¹ Тошкент шаҳар, Юнусобод тумани фуқаролик ишлари бўйича туманлараро судининг 2006 йилдаги ҳал қилув қарори. №345.

Oila kodeksining 13-moddasi to'rtinchi qismida belgilangan uzrli sabablar bo'lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkinligi normalanadi. Ushbu moddaning beshinchi qismida esa alohida hollar (homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar)da nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkinligi ko'rsatiladi.

Fikrimizcha, 13-modda beshinchi qismida ko'rsatilgan "boshqalarda" iborasini aniqlashtirib, unga nimalar kirishi aniq ko'rsatilishi lozim. Chunki "boshqalarda" iborasi turli ma'noni anglatadi.

Amaliyotda nikoh tuzish muddatini qisqartirishni so'rab ariza berganlarning arizalarini ko'rib chiqish tegishli davlat idoralar tomonidan ko'rilayotgandan nikoh tuzishda shoshma-shosharlikka asos bo'ladigan holatlarning mohiyatini aniqlash lozim. Shuning uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini to'g'ri, erkin ifoda etish qobiliyatiga qanchalik ega bo'lishligini aniqlashda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idoralarining xodimlari mas'uliyat bilan yondoshishlari talab etiladi.

Oila kodeksining 14-moddasida bo'lajak er-xotinning o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi hamda nikoh tuzishga majbur qilishni taqiqlash kabi qoidalarining kiritilishi oilani mustahkamlashga qaratilgan huquqiy me'yor bo'lib xizmat qiladi.

Nikoh tuzishning ixtiyoriylik tamoyilining buzilishi va bu harakatlarda taraflarning aybdor bo'lishi aniqlansa, sud O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 136-moddasi normasini qo'llashga haqli. Ushbu normada ko'rsatilganidek, "ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yohud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'irlash, shuningdek, ayolni erga tegishga to'sqinlik qilish eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yohud olti oygacha qamoq bilan yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish" bilan jazolanishi ko'rsatilgan.¹

Nikoh tuzish shartlaridan biri bo'lgan nikoh tuzuvchilarning erkiga xilof ravishda qilingan har qanday xatti-harakatlar inson manfaatlariga nisbatan zid hisoblanib, mustaqil respublikamiz fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlarini poymol qilinishiga olib

¹ Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. –Т.: Адолат. 2006 й.

keladi. Nikohni o'zaro kelishuv-rozilik asosida tuzilishi, bu o'z navbatida bo'lajak er-xotinning oilasini tenglik asosida qurilganligini bildirsa, boshqa tomondan oilaning barqaror va mustahkam bo'lishini ham ta'minlashga qaratilgan tadbiridir.

YUqoridagilardan shunday xulosaga kelib, nikoh tuzishning ixtiyoriylik tamoyiliga quyidagicha ilmiy-doktrinal ta'rif berish mumkin.

Nikoh tuzishning ixtiyoriylik tamoyili deganda, nikohlanuvchi shaxslarning o'zga shaxslar tomonidan majbur etilmasdan oila qurish uchun erkin, tenglik va o'zaro ixtiyoriylik asosida nikohni rasmiylashtirishlari, oila qonunchiligi normalarida belgilangan, shuningdek kelajakda ularning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari himoyasini oilaviy-huquqiy normalar bilan mustahkamlaydigan, vijdon va qalb amri bilan nikoh munosabatlariga kirishib, er-xotinlik munosabatida yashashlari tushuniladi.

1.3 Nikoh tuzish shartlari bo'yicha biologik xarakterdagi tavsiflovchi holatlarning mazmuni

Nikoh tuzish shartlari bo'yicha biologik xarakterdagi holatlar xususida to'xtalib, shuni ta'kidlash lozimki, nikoh tuzish uchun talab qilinadigan shartlardan asosiysi bu nikohlanuvchi shaxslarning qonun doirasida belgilangan yoshga etishlari hisoblanadi.

Oila qonunchiligiga binoan uchta asosiy holat, ya'ni to'la muomala layoqatini beradi. Bular: nikohga kirish, emansipatsiya, nikohdan ajralish bo'lib hisoblanadi.

SHu o'rinda amaldagi Fuqarolik qonunchiligi belgilagan to'la muomala layoqatiga ega bo'lish imkoniyatlarining kengaytirilganligini aytish o'rinli bo'lardi. CHunonchi, bugungi kunda quyidagi hollarda fuqaro to'la muomala layoqatiga ega bo'lib hisoblanadi:

- fuqaroning voyaga etishi, ya'ni 18 yoshga to'lishi munosabati bilan (mamlakatimiz qonunchiligiga ko'ra, Respublikamizda 18 yosh fuqaroning voyaga etish yoshi hisoblanadi. Binobarin, bu yoshdan fuqaro to'la muomala layoqatiga ega bo'ladi, deb belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 22-moddasiga binoan, mamlakatimizda bu sohada o'ta mo'tadil yosh (davr) tanlangan. Mazkur muomala layoqatiga etish yoshi turli mamlakatlarda turlicha qilib belgilangan. Jumladan, YAponiyada bu yosh 20 yosh¹, Frantsiyada 21 yosh², SHveytsariyada 25 yosh qilib belgilangan. YAna e'tiborlisi, Islomda to'la muomala layoqatini belgilash va aniqlashda o'ziga xos yondoshuv mavjud. Bu huquq tizimiga ko'ra, to'la muomala layoqatini belgilashda jins ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, erkaklar uchun 15 yosh, qizlar uchun 12 yosh qilib belgilangan³);

- voyaga etgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o'tgan vaqtdan e'tiboran (darvoqe, nikoh yoshi bizda erkaklar uchun – 18 yosh, ayollar uchun – 17 yosh qilib belgilangan⁴.

Nikoh yoshi turli davlatlarda turlicha qilib belgilangan. Masalan, Bolgariyada har ikki jins vakillariga ham – 18 yosh, Angliyada – 16 yosh, Frantsiya va Vengriyada erkaklar uchun – 18 yosh, ayollar uchun – 16 yosh, Pol'shada – 21 va 18 yosh, YA-

¹ С.Вагацума, Т.Ариидзуми. Гражданское право Японии. - М.: Прогресс.1983. -50 б.

² Французский Гражданский кодекс. Юридическое издательство НКЮ СССР. - М.:1941. -118 б.

³ Мухтасар (Шариат қонунларига қисқача шарҳ). - Т.: Чўлпон. 1994. -335 б.

⁴ Ўзбекистон Республикасининг Оила кодексига шарҳлар. - Т.: Адолат. 2000. -44 б.

poniyada – 18 va 16 yosh, Gruziyada – 17 va 16 yosh, Ukraina va Turkmanistonda – 18 va 17 yosh, AQSHning turli shtatlarida nikoh yoshi – 16 dan 21 yoshgacha qilib belgilangan¹);

- nikoh tuzish natijasida ega bo'lingan muomala layoqati 18 yoshga to'lmagan turib, nikoh tugatilgan taqdirda ham to'la saqlanib qoladi. Nazarimizda, qonun chiqaruvchi organ ushbu holatni belgilab juda to'g'ri qarorga kelgan. Buni shunday izohlash mumkin bo'lardiki, nikoh ikki jins vakillarining ittifoqidan iborat bo'lganligi ularning bo'lajak ota, bo'lajak onalik sifatlarini namoyon qiladi. O'z-o'zidan ravshanki, qonunchilik bunday “beqarorlikka” befarq qarab tura olmaydi;

- emansipatsiya holati bo'yicha, o'n olti yoshga to'lgan voyaga etmagan shaxs mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan bo'lsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lsa u to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinadi. Ushbu holatning belgilanishini ham qonunchilikning muvaffaqiyati deb baholasak, o'rinli bo'lardi. Chunki bu bilan fuqarolarning to'la muomala layoqatiga ega bo'lish imkoniyatlari yanada kengaytirildi. Ammo, o'z o'rnida shuni ham aytish kerakki, qonunchilik fuqarolarga, shu jumladan, voyaga etmaganlarga bir paytning o'zida ham huquq beradi (o'z harakatlari bilan imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi), ham burch-majburiyat yuklaydi (ayrim harakatlarni sodir etishdan saqlanish kabi)². SHu ma'noda olganda, fuqaro va davlat o'zaro huquqdor va burchdor hisoblanadi. Bu bilan nima demoqchimiz? FKning 28-moddasiga kiritilgan emansipatsiya³ haqidagi normada voyaga etmagan shaxs mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan bo'lishi talab qilinadi. Bu – bejiz emas, albatta.

Chunki amaldagi mehnat qonunchiligi⁴ga ko'ra, xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi akt – bu mehnat shartnomasi hisoblanadi. Unda taraflarning huquq va majburiyatlari aks etadi. Tabiiyki, mehnat shartnomasi asosida ishlash xodim zimmasiga muayyan majburiyatlarni, mas'uliyatni yuklaydi. U ish

¹ М.Богуславский. Международное частное право. - М.: Юр.лит. 1994. -12 б.

² И.Б.Зокиров, М.Х.Баратов. Вояга етмаган болаларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари. Хотин-қизлар ва болаларнинг ҳуқуқларига оид қонун қафолатлари тўпламида. -Т.: Ўзбекистон. 2000. -115 б.

³ Эмансипация лотинча “emancipation” сўзидан олинган бўлиб, “қарамликдан ёки қамситилишдан озод қилиш, мустакиллик ва тенг ҳуқуқлилиқ олиш” деган маънони билдиради.

⁴ Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси.//Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1996 йил 1-сонга илова.

beruvchi oldida, shuningdek, mehnat jamoasi oldida hisobdor sanaladi. O'z navbatida ish beruvchi ham yollangan xodim oldida bir qator majburiyatlarga ega bo'ladi. FKga aynan mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan bo'lishi talabining kiritilishini yana nima bilan izohlash mumkin? Deylik, mehnat shartnomasi tuzmasdan, oddiy (bir gallik), og'zaki kelishuv asosida imorat solayotgan ishchi-xodimlarni ko'p uchratamiz. To'g'ri, ular o'zaro kelishuv asosida muayyan ish bajarishyapti. Ammo, to'lov kuni kelgan paytda ular ko'p hollarda chuv tushib qolishmoqda. Sudga murojaat qilishning esa, hech bir imkoni yo'q.

Sabab – taraflar o'rtasidagi kelishuvning ifodasi hisoblangan shartnoma (aniqrog'i, yozma shartnoma) mavjud emas. Sud uchun esa tabiiyki, bu holat (ya'ni, shartnoma) asosiy dalil sifatida talab qilinadi. Bunday holatlarda o'z-o'zidan butun tavakkalchilikni yollangan ishchi o'z zimmasiga olishiga to'g'ri keladi. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, bunday hollarda yozma shaklda mehnat shartnomasi (kontrakti) tuzgan afzal va o'z navbatida bu hol voyaga etmagan shaxsning to'la muomala layoqatiga ega bo'lishini ham bildiradi.

A.Odinaevning fikricha emansipatsiya holatiga olimlar tomonidan bildirilgan barcha fikrlar bir-birini ma'lum ma'noda takrorlab turadi va ularning umumiy ma'nosi bitta mezonni anglatadi¹.

Xo'sh, fuqarolik protsessida shaxsning to'la muomala layoqatiga ega bo'lishi qanday tartibda amalga oshiriladi?- degan savol tug'ilishi tabiiydir.

Fuqarolik protsessual kodeksining 38-moddasi 4-qismida o'n olti yoshga to'lgan, voyaga etmagan shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muomalaga to'la layoqatli (emansipatsiya) deb e'lon qilingan taqdirda, sudda o'z huquqlari va majburiyatlarini shaxsan amalga oshirishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Fikrimizcha, nikoh yoshini belgilashda muayyan oqilona mezon quyidagi omillar bilan belgilanishi lozim:

-birinchidan, biologik mezon. Bunday mezon bo'lg'usi er-xotinni jismoniy jihatdan voyaga etganligini belgilab beradi. Jismoniy barkamollik nafaqat jinsiy jihatdan nikohlanuvchi shaxslarning etilganliklarini, balki nikohlanuvchi shaxslarning salomat-

¹ Одинаев А. Эмансипация: уни қўллаш масалалари. -Т.: ТДЮИ, 2006. -17 б.

liklari, farzand ko'rishiga, ularni parvarish qilishga tayyorgarlik holatlarini ham anglatadi;

- ikkinchidan, ruhiy-psixologik mezon. erkak va ayol turmush qurishga ruhiy jihatdan tayyor bo'lishlari, ularda eng avvalo bolalik va o'smirlik davridagi xis-hayajonga berilish, psixologik barqarorlik xislatlari o'rniga muayyan dunyoqarash, erk-iroda, hayotiy ko'nikmalar shakllanadi, bu esa oilani mustahkam va barqaror bo'lishini ta'minlaydi;

-uchinchidan, aqliy etuklik. Ushbu mezon kishini faqat muayyan intellektual holati, bilim darajasinigina anglatmaydi. Aqliy holat muayyan bilim, tajriba va uni amalda qo'llay olish, er-xotin, oila, farzand mas'uliyati, oilani normal turmush kechirishini ta'minlash layoqati hisoblanadi;

-to'rtinchidan, sotsial-ijtimoiy shart-sharoitlar. Ushbu shart-sharoitlar majmui yosh oilani moddiy jihatdan turar-joy, maishiy jihatdan o'zini-o'zi ta'minlash, o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish imkoniga ega bo'lishni anglatadi. Albatta, yosh oila ota-onalar va boshqa qarindoshlar g'amxo'rligi ostida bo'lishi tabiiy. Ammo bu g'amxo'rlik yosh oilani mutlaqo boqimandalik darajasida bo'lish yoxud sotsial-ijtimoiy hujayra sifatidagi mustaqil holatida bo'la olmasligi natijasi bo'lmasligi kerak;

-beshinchidan, huquqiy mezon. U yosh kelin-kuyovni huquq sub'ekti, to'la muomala layoqatiga ega bo'lishini anglatadi. Bir qarashda biologik, ruhiy psixologik, sotsial-ijtimoiy, aqliy mezonlardan farqli ravishda yuridik mezon qonun chiqaruvchining xohishi o'ziga xos sub'ektivlikka asoslangan mezonga o'xshab tuyuladi. Biroq, yuqoridagi boshqa omillar kabi nikoh yoshini belgilovchi yuridik mezon ham muayyan ob'ektiv asoslarga tayanadi. Ushbu asoslar negizida yuqoridagi to'rt omil yotadi, deb aytish mumkin. SHu munosabat bilan amaldagi qonunchilikda belgilangan nikoh yoshi o'n etti va o'n sakkiz yosh qay darajada oqilona ekanligini o'rganish muayyan qiziqish tug'diradi. N.Ashurovaning fikricha, voyaga etmagan fuqarolar fuqarolik huquqlariga ega bo'lsalar-da, ongli harakat qilish imkoniyati cheklanganligi bois o'zlari mustaqil majburiyatlarni zimmalariga olishlari qonun bilan 18 yoshga to'lishlari bilan vujudga keladi. Voyaga etganlik va voyaga etmaganlik orasidagi farqni aynan yosh bilan bog'lab qo'yilganligining asosiy sababi shu yoshdan (18 yosh) boshlab insonda ruhiy

etuklikka erishish, hayotiy tajribaning ortishi, o'zining qilayotgan xatti-harakatini tushunish va o'zini idora etish xislatlari paydo bo'ladi. Mazkur belgilarning mavjudligi shaxsning voyaga etganligini belgilab beradi. N.Ashurova shuningdek, voyaga etmaganlar fuqarolik-huquqiy holatini belgilashda biologik-jismoniy va psixologik mezonlar xususiyatlarini o'rganib, ularni har taraflama asoslab beradi. Ayni paytda u "voyaga etmagan" iborasini qonunchilikga kiritish maqsadida ishlab chiqadi. "Voyaga etmagan fuqarolar deganda, qonunda belgilangan yoshga etmagan, o'z harakatlarining huquqiy oqibatlarini anglab olish uchun hayotiy tajriba va zaruriy aqliy, ruhiy, irodaviy qobiliyatlarga ega bo'lmagan shaxslarga aytiladi". Muallifning fikricha, bolalarda erta ulg'ayish-aksel'ratsiya jarayoni ham mavjud. Aksel'ratsiyaning asosiy ko'rinishlari X1X asrning 20-30 yillariga qaraganda o'smirlarning bo'y uzunligi, tana og'irligi, jinsiy rivoji kabi belgilarda tezlashuv kuzatiladi (har o'n yilda 4-6 oyga tezlashgan). O'g'il bolalarda esa bu davr 1-2 yosh oldin balog'atga etishda namoyon bo'lmoqda. Aksel'ratsiya jarayoni voyaga etmaganlarni fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtiroki doirasini kengaytirishni talab etadi¹.

N.Ashurovaning voyaga etmaganlarning to'laqonli huquq sub'ekti sifatidagi xususiyatlarga ega bo'la olmaslik sabablari to'g'risidagi fikr-mulohazalariga to'liq qo'shilgan holda, shuni ham unutmaslik kerakki, fuqarolik-huquqiy munosabatlar va nikoh huquqiy munosabatlari o'rtasida muayyan umumiyliklar mavjud bo'lishi bilan birga, nikoh munosabatlari ijtimoiylik darajasi va mas'uliyat hajmi nisbatan yuqoriroqdir. SHu sababli ham fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish maqsadida aksel'ratsiya hisobga olinishi (voyaga etmaganlar ishtirokidagi fuqarolik munosabatlari doirasi kengayishi) maqsadga muvofiqdir, lekin bu holat kelgusida nikoh yoshini kamaytirish uchun asos bo'lmasligi lozim.

YUqorida ta'kidlanganidek, nikoh yoshi masalasida turli xil bahs-munozaralar mavjud. T.V.Kochergina nikoh yoshi masalasi xususida to'xtalar ekan, nikoh yoshini bevosita ayollar uchun o'n etti, erkaklar uchun o'n sakkiz yosh qilib belgilanganligi

¹ Н.Ашурова. Вояга етмаганларнинг фуқаролик-ҳуқуқий муносабатлардаги иштироки. Номзодлик дисс. -Т.: 2008. -23-35-бетлар.

ayni muddao ekanligini ta'kidlaydi¹, SHuningdek, ushbu yoshda yigit va qizlar biologik jihatdan to'la qonli rivojlanish darajasida bo'lishlarini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, T.V.Kocherginaning fikrlari biroz bahstalar. CHunki ayrim hollarda, yigit va qizlarning ruhiy holati, jinsiy moyillik darajasi to'la qonli rivojlanmagan bo'lishi ham mumkin.

SHu o'rinda Oila kodeksi ham 1969 yilda qabul qilingan Nikoh va oila kodekslaridagi nikoh yoshi masalalari xususida ham to'xtalib, ular o'rtasida nikoh yoshi masalasida hech qanday o'zgarish bo'lmaganligini ko'rish mumkin.

Oila kodeksida agar uzrli sabablar bo'lganida alohida hollarda tuman, shahar hokimining qaroriga ko'ra, nikoh yoshi ko'pi bilan bir yilga kamaytirilishini quyidagicha asoslash mumkin:

Nikoh yoshini yuqorida belgilangan asosda kamaytirilishiga mahalliy sharoitning o'ziga xos xususiyatlari, nikohlanuvchilarning biologik jihatdan etilishi uchun etarli sharoitlarning mavjudligi va boshqa shu kabi holatlar asosiy sabab hisoblanadi va ular inobatga olinganligi maqsadga muvofiqdir. SHuning uchun bunday qoidaning kiritilishi xalqimiz turmush tarziga mos bo'lganligi sababli huquqiy me'yor sifatida o'z o'rnini to'g'ri topgan deb hisoblaymiz.

G.K.Matveevning fikricha, Oila kodeksida ham, 1969 yilgi Nikoh va oila kodeksida ham necha yoshdan boshlab nikohga kirish mumkin emasligi belgilanmagan (ya'ni kekxa, yoshi ulug' kishilarni nikohga kirish imkoniyatlari chegaralanmaydi)².

Fikrimizcha, nikoh tuzuvchilar o'rtasidagi yosh bo'yicha katta farq bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir. Bunga asosiy sabab:

-birinchidan, erkak va ayolning yoshi o'rtasida 25-50 yosh va undan katta farq ularni shahvoniy ehtiyojlarini qanoatlanishiga ta'sir ko'rsatishi, bu bilan oilaning buzilishiga;

-ikkinchidan, yoshi katta er-xotindan birining aksariyat hollarda yorug' dunyodan oldinroq ko'z yumishi sababli farzandlar tarbiyasiga hamda oiladagi iqtisodiy qiyinchiliklarni vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

¹ T.V.Кочергина. Семейное право. –Учебно-методическое пособие. -Т.: ТДЮИ. 2006. 105 бет.

² Г.К.Матвеев. Советское семейное право. – М.: Юр.лит. 1985. 67-бет.

Oila kodeksining 15-moddasi 2-qismida “uzrli sabablar bo’lganida, alohida hollarda nikohga kirishni hohlovchilarning iltimosiga ko’ra, nikoh davlat ro’yxatidan o’tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimining qarori bilan nikoh yoshini ko’pi bilan bir yilgacha kamaytirish mumkinligi xaqida aytib o’tgan edik. Xo’sh, “uzrli sabablar”, “alohida hollar” tushunchasiga nimalar kiradi. Bu haqda oila kodeksida hech nima deyilmagan. Nazarimizda, konunda nikoh yoshini kamaytirish uchun asos bo’ladigan holatlarning doirasini belgilash (taxminiy sanog’ini berish) maqsadga muvofiq bo’lar edi. Bularga, nikoh yoshiga etmagan qizni homilador bo’lib qolishi yoki farzandni dunyoga keltirishi, qizlik iffatini yo’qotganligi va ota-onalari ularni turmush qurishga rozi bo’lishlari, bo’lajak kuyovni harbiy xizmatga chaqirilishi va boshqa muhim sabablarini kiritish mumkin.

YUqorida ko’rsatib o’tilganidek, Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligiga kiruvchi respublikalarning Oila kodekslarida nikoh yoshi turlicha qilib belgilanganligini ko’rish mumkin. Masalan, Rossiya Federatsiyasida belgilangan nikoh yoshi (o’n sakkiz) yoshni ikki yoshga kamaytirish vakolati qonunda ko’rsatilgan tegishli idoralarga berilgan.

Qozog’iston Respublikasining 1969 yilgi Nikoh va oila kodeksida nikoh yoshi erkak va ayollar uchun o’n sakkiz yosh qilib belgilangan. Ayrim hollar tegishli mahalliy organlarning ruxsati bilan nikoh yoshi faqat ayollar uchun bir yilga kamaytirilishi mumkinligi ko’rsatilgan¹.

Xuddi shunday huquqiy me’yorlar Qirg’iziston, Latviya, estoniya, Moldova respublikalarining qonunlarida o’z ham ifodasini topgan.

Ayrim uzoq xorijiy mamlakatlarda masalan, Pol’sha respublikasida nikoh yoshi erkaklar uchun yigirma bir yosh, ayollar uchun o’n sakkiz yosh; Ruminiya Respublikasi ayollar uchun o’n olti; Xitoy Xalq Respublikasida esa ayollar yigirma yoshdan, erkaklar yigirma ikki yoshdan nikoh tuzishga haqli ekanliklari normalanadi.

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligida nikoh tuzish printsipi masalasi o’ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turganligi yaqqol ko’rinib turibdi.

¹ Комментарии к кодексу о браке и семье Каз ССР. -Алма-ата.: Изд.Казакстан. 1972. 24-25-бетлар.

Demak, nikoh yoshining qisqartirilishi tufayli oila qurgan er-xotin to'la muomala layoqatiga ega bo'lgan hisoblanib, fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan holatlarda ishlarda tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar.

Nikoh yoshini qisqartirish to'g'risidagi qoidaning yana bir yangi jihatlari nikoh yoshi nikohlanuvchilarga xohlagan davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimiga murojaat qilish huquqini bermaydi, balki nikoh davlat ro'yxatidan qaerda o'tkazilgan bo'lsa, shu joydagi tuman, shahar hokimiga murojaat etish huquqini beradi. Bu qoida amaliyot talablariga javob beradigan jihatlar bo'lib, suiiste`molchiliklar yoki turli asossiz harakatlarni oldini olishga imkon beradi.

1.4. Respublikamizda Oila qonunchiligining takomillashtir muammolari

Huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida oila alohida muhim funktsiyalarni bajaradi. eng avvalo u komil insonni kamol toptiradi, ijtimoiy qadriyatlar va milliy anʼanalarni avloddan avlodga etkazishda asosiy zanjir vazifasini oʻtaydi. Oilaning huquqiy maqomi ham ushbu masʼuliyatli vazifalarni bajarishni taʼminlashi lozim. SHu sababli ham Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVI- bobi maxsus ravishda oilaga bagʻishlangani bejiz emas.

Mamlakatimizda iqtisod, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizim va jamiyatni maʼnaviy jihatdan qayta oʻzgartirish va oilalarni mustahkamlash sohasida keng koʻlamli islohotlar olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohatlarning huquqiy negizi barpo etilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy -iqtisodiy tizimi va huquqiy negizini domiy ravishda takomillashtirib borish mamlakatimiz ravnaqini taʼminlashning muhim omillaridan biridir.

Oila xuquqi boʻyicha mutaxassis olim F.M.Otaxoʻjaevning taʼbiri bilan aytganda, jamiyatni rivojlanishi shartnomalarni, yaʼni kichik “mini” qonunlarni paydo boʻlishiga sabab boʻlmoqda.

Hozirgi kunda fuqarolik-huquqiy va oilaviy-xuquqiy munosabatlar kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Maʼlumki, fuqarolik-huquqiy va oilaviy-xuquqiy munosabatlarni rivojlanib borishi bilan jamiyatimizda turli xil yangidan-yangi munosabatlar, yaʼni qonunlarda koʻrsatilmagan munosabatlar ham vujudga kelmoqda. Bozor munosabatlariga oʻtishimiz va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda yangi munosabatlarni paydo boʻlishi tufayli, Fuqarolik huquqida taʼsis shartnomasi, Oila huquqida nikoh shartnomasi instituti paydo boʻldi Taʼsis shartnomasi fuqarolik - huquqiy shartnoma hisoblanadi. Taʼsis shartnomasi subʼektlarning birgalikdagi faoliyati boʻyicha munosabatlarni rasmiylashtiruvchi yuridik hujjatdir. Uning asosida muassislar yuridik shaxs tashkil etish va uning normal faoliyat yuritishini kelishib oladilar.

Nikoh-oila munosabatlarini tartibga solishda oʻn ikki asr davomida Turkiston hududida amalda boʻlgan diniy huquqiy tizim – shariat, islom huquqi normalari, Hadislarning roli juda katta boʻlgan. Imom al-Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad”

(„Adab durdonalari“) nomli hadislar to‘plami shular jumlasiga kiradi. Asarda olti yuzta hadis ikki yuz oltmish etti bobga jamlangan bo‘lib, unda ota-onani e‘zozlash, kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo‘lish, qo‘shnichilik, insoniylik va mehr-shafqatlilik, sahiylik va baxillik, aldamchilik, chaqimchilik va maqtanchoqlik, isrofgarchilik va johillik, sharmu-hayo va uyatchanlik kabi qator husni odob va go‘zal xulq qoidalari yoritilgan.

O‘tmishimizning ushbu davrlarida ijtimoiy munosabatlarni asosan Islom ahkamlari tartibga solgan va mustahkamlagan bo‘lsa, undan keyingi davrlar voqealarining rivoji va kishilik jamiyatining taraqqiyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, mavjud ijtimoiy munosabatlar turli davrlarda xilma-xil huquqiy aktlar bilan tartibga solingan.

SHo‘rolar hukmronlik qilgan yillarda asosan SHo‘ro mafkurasiga asoslangan normativ-huquqiy hujjatlar manba bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbekiston SSRning Nikoh va oila kodeksi ettinchi chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining to‘rtinchi sessiyasida 1969 yil 6 iyunda tasdiqlanib, o‘sha yilning 1 oktyabridan amal qila boshlagan. Unda Ittifoq Qonuni asoslarida belgilab qo‘yilgan qoidalar aynan olingan. SHu bilan birga, bu sohada respublika qonunlari bilan hal qilinishi lozim bo‘lgan qoidalar ifodalangan. Respublika Nikoh va oila kodeksi muqaddima, olti bo‘lim, 25 bob, 275 moddadan iborat edi.

Kodeks Muqaddimasida yosh avlodni tarbiyalash, uning jismoniy va ma‘naviy kuchlarini rivojlantirish oilaning eng muhim vazifalaridan, deb ta‘kidlanadi.

O‘zbekiston SSRning Nikoh va oila kodeksi bevosita oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘lsa-da, lekin o‘zining mazmun-mohiyati bilan deyarli barcha oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solmagan edi. Mazkur kodeksda mahalliy urf-odat va an‘analarimizga binoan qarindoshlik, quda-andachilik va qayin-bo‘yinchilik tushunchalari kabi holatlari yoritib berilmagan edi. Kodeksda shuningdek, ota-ona hamda voyaga etmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlari kabi masalalari to‘laqonli ochib berilmagan edi. Darhaqiqat, mazkur kodeks bir necha yillar mobaynida amalda bo‘lib keldi. Qaysidir ma‘noda oilaviy munosabatlarni tartibga soldi ham.

1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qildi. SHu munosabat bilan respublikamizda amalda bo'lgan sobiq sovet hokimiyati yillarida qabul qilingan bir qator qonunlar ham o'z kuchini yo'qotgan hamda yangi qonunlar, kodekslar qabul qilindi.

1998 yil respublikamizda "Oila" yili deb e'lon qilindi. SHu yili O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 30 aprelda qabul qilindi, 1 sentyabrdan amalga kiritildi.

Oila kodeksi O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga erishgan yillarda ilk bora yangi, ahloq-odob, mahaliy urf-odat, an`analarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi normalariga asosan ishlab chiqilib, amalga kiritilgan, yagona kodifikatsiyalashtirilgan qonun hisoblanadi. Oila kodeksi 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iboratdir. Oila kodeksidagi yangiliklar quyidagilardan iboratdir:

Oila kodeksi yirik qonuniy hujjat bo'lib, u nikohni, oilani, voyaga etmagan bolalarning shaxsiy va mulkiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

YAngi Oila kodeksi davlatning oila manfaatlariga, onalikni himoya qilishga, otalikni va farzandlikni himoya qilishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishni muvofiqlashtiradi. Nikohlanuvchi shaxslarning nikohi pok, haqiqiy, shu bilan birga o'zaro rozilik, tenglik asosida qurilishi bilan birga, ma`naviy jihatdan ular etuk inson bo'lishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

- 1.Kodeks ilk bora yagona tarzda Oila kodeksi¹ deb nomlandi;
- 2.Kodeksning normalari Konstitutsiyaning normalariga to'la-to'kis va hamohang ravishda mos kelishi bilan ajralib turadi;
- 3.Kodeksda nikoh tuzish tartibi va shartlariga kiritilgan yangiliklarning aks etishi (nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish);
- 4.Er-xotinlarning shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlari kengaytirildi;
- 5.Nikoh shartnomasi instituti kiritildi;
- 6.Nikohning tugatilishi bo'yicha yangi normalar kiritildi;

¹ Муқаддам шундай турдаги муносабатларни тартибга солувчи ва мустаҳкамловчи қонун ҳужжатининг номи — "Никоҳ ва оила кодекси" деб юритилган. Яъни, 1969 йилги кодексдир.

7.Nikohning haqiqiy emasligi va uning huquqiy oqibatlari yanada mustahkamlandi;

8.Ilkl bora qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash masalalariga oydinlik kiritildi;

9.Aliment huquq va majburiyatlarining kengaytirildi;

10.Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish masalalariga alohida urg'u berildi;

11.Vasiylik va homiylik instituti kengaytirildi;

12.CHet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish yanada mustahkamlandi.

Oila kodeksi haqida to'xtalib shuni aytish kerakki, uning muvaffaqiyatli jihatlari dan biri, kodeksning 4-moddasiga oila, onalik, otalik va bolalikning davlat himoyasiga olinganli, shuningdek, onalik va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovorligi normalanganligi oilaga bo'lgan hurmat-e'tiborning yuqori pog'onaga ko'tarilganligini ko'rsatadi.

Oila kodeksining 8-moddasiga ko'ra, qonun hujjatlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari tamoyillariga zid bo'lmagan mahalliy urf-odat va an'analar qo'llanilishi belgilab qo'yilgan.

Mazkur holat bo'yicha shuni alohida ta'kidlash joizki, Oila kodeksi qabul qilinganiga mana o'n yil to'ladi. Mana shu o'n yil mobaynida mazkur kodeksga bir qator qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi. Jumladan, Oila kodeksining 17, 49-moddalari hamda aliment huquq va majburiyatlari bo'limlariga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartishlarni ko'rsatish mumkin.

Haqiqatan, Oila kodeksi hozirgi kunda to'laqonli ravishda ishlamoqda, deyish mumkin. Lekin Oila qonunchiligini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha o'z echimini kutayotgan masalalar ham yo'q emas.

Mahalliy urf-odat va an'analarimizga binoan nikohga kirayotgan shaxslar agar 17 yoki 18 yoshda bo'lsalar, albatta ota-onalari bilan maslahatlashsalar, maqsadga muvofiq bo'lar edi. CHunki 17 yoki 18 yoshdagi yigit qizlar hali hayotga unchalik tayyor

bo'lmaydilar. Hayotning pastu-balandini ko'rgan ota-onalar o'zlarining farzandlariga hayot saboqlarini tushuntirsalar, oila muqaddas dargoh ekanligini, uni har doim sof va gard yuqtirmay asrash lozimligini ta'kidlasalar, ayni muddao bo'alrdi.

Bundan tashqari, hozirgi kunda yoshlar orasida ajralish masalalari kundan-kunga ortib bormoqda. Bu o'zbek oilasi uchun juda ham ayachli hol. Ajralishlarga asosan yoshlarning hayotga engi-elpi qarashlari asos bo'lib qolmoqda. 2007 yilda mamlakatimiz bo'yicha jami 19.565 ta yosh oila ajrashib ketgan bo'lsa, shulardan sudlarda 14.661 tasi, FHDYO organlarida esa 4.909 tasi tugallangan.

YUqoridagilarni inobatga olgan holda shuni alohida ta'kidlash joizki, Oila kodeksining nikohning tugatilish masalalariga bag'ishlangan bo'limiga nikohdan ajrashayotgan er-xotinlarning o'rtadagi voyaga etmagan bolalarining huquq va manfaatlarini yanada ham mustahkamroq himoya qilgan holda, ularga sud tartibida yarashtirish uchun beriladigan 6 oygacha bo'lgan muddatni "bir yilga"cha deb uzaytirilsa, bu hol voyaga etmagan bolalarni huquqlari himoyalanganligining kafolati bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Nikohdan ajralishga hozirgi kunda ayollar o'rtasida ko'proq moyillik sezilmoqda. CHunonchi, ajrashayotgan er-xotinlardan ajralish sabablari so'ralib, tahlil qilinganda, bozor iqtisodiyoti sharoitini ro'kach qilib, hozirgi kunda moddiy qiyinchiliklar va oiladagi ro'zg'or yumushlarining barchasi ayollar zimmasida ekanligini ko'rsatmoqdalar. Bu hol aytish kerakki, jamiyatimizning salbiy (negativ) holatlaridir. Bunday hol har bir oila, shuningdek jamiyat a'zolarini hushyorlikka chorlashi lozim.

Oilada sog'lom muhitni barpo etish kerak. Buning uchun, oila qurishdan avval, xalqimizning urf-odatlariga, yangi oilalar uchun uy-joy sharoitini yaratish mas'uliyatini ota-ona zimmasiga qonun yo'li bilan yuklash lozim. Nikoh munosabatiga kirishishdan avval, yigitni oilani ta'minlash uchun etarli moddiy mablag'lari bor bo'lishi, buning uchun u ma'lum bir kasb-hunar egasi bo'lishi, nikoh yoshiga, albatta rioya qilinishi lozim deb o'ylaymiz.

Hozirgi tibbiyot oilada tug'ilishi mumkin bo'lgan bolalarning sog'lom tug'ilishi to'g'risida hech qanday amaliyotga ega emas, deyish mumkin. SHu sababli oila

qurishdan avval bo'lajak er-xotinning ular o'rtasida qanday farzand tug'ilishi haqida shifokorlardan xulosa olishni majbur qilib qo'yilishi lozim.

Qonunchiligimizda yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh munosabatiga kirishish taqiqlab qo'yilgan bo'lsa-da, amakivachcha, xolavachcha va h.k. shaxslar o'rtasida nikoh munosabatiga kirishishga yo'l qo'yiladi. Lekin, meditsina nuqtai nazaridan bu juda noto'g'ri bo'lib hisoblanadi. CHunki amakivachcha va xolavachchalar ham yaqin qarindoshlar bo'lib hisoblanadilar. Fikrimizcha, ushbu nikoh munosabatlariga ham barham berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. CHunki ajralishlarning sababi ham aynan qarindoshlar o'rtasida tuzilayotgan nikoh bo'lib hisoblanmoqda.

Bundan tashqari, Oila qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan 2008 yilning 8 dekabrda qabul qilingan "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonundan kelib chiqib, voyaga etmagan bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlarini inobatga olgan holda Oila kodeksining "Voyaga etmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari" bo'limiga ham qo'shimcha va o'zgartish kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. SHunday qilinsa, yangi qabul qilingan qonun hamda Oila kodeksi normalari hamonhang bo'ladi, deb hisoblaymiz.

II-BOB. NIKOH TUZISHGA MONELIK QILADIGAN HOLATLARNING UMUMIY TAVSIFI

2.1 Nikoh tuzish shartlari bo'yicha yakka nikohlilik tamoyilining buzilishi va uning oqibatlari

Davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri to'laqonli oilani shakllantirish va muhofaza qilish ekan, bevosita bu borada ota-onalarning bolalar oldida turgan vazifalari va majburiyatlarini to'liq amalga oshirilishini ta'minlash hozirgi kunning dolzarb masalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, hozirgi kunda davlatimiz oldida turgan muhim masalalardan biri- bu har bir oilaning farovonligini ta'minlash, har tomonlama sog'lom oilalarni vujudga keltirish, onalik va bolalikni muhofaza qilishdan iboratdir¹.

SHuning uchun ham mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda aholini huquqiy va ijtimoiy jihatdan muhofaza qilishdan iborat ekan. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar Oila konunchiligi normalarida belgilangan nikoh tuzish shartlariga qo'yiladigan talablarning buzilishi sifatida namoyon bo'ladi.

Nikoh tuzish shartlariga monelik qiladigan holatlarni e'tiborga olmaslik tuzilgan nikohning haqiqiy sanalmasligiga asos bo'ladi. Bu qoida Oila kodeksining 16-moddasida o'z ifodasini topgan.

Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar quyidagilardan iborat:

-loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida;

-nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

-loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida yo'l qo'yilmasligi normalanadi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 7 йиллигига бағишланган маърузасидан.// Халқ сўзи. 1999 йил 6 декабр.

SHu o'rinda Oila qonunchiligidagi yuridik faktlar va ularning turlari xususida alohida to'xtalib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish hamda nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar ham yuridik faktlar tarkibiga kirish yoki kirmasligi masalasida fikr yuritishni lozim deb hisoblaymiz.

Barchaga ayonki, yuridik faktlar ma'lum ma'noda fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi holatlar bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini"¹da hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 38-moddasida oilaviy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi holatlar qatoriga tug'ilish, nikohga kirish, nikohdan ajralish hamda fuqaroning vafoti kabi masalalar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Fuqarolik kodeksi qabul qilingunga qadar ushbu yuridik faktlarni etti turi mavjud bo'lib, bular qatoriga farzandlikka olish, ismni o'zgartirish kabi masalalar ham kiritilgan edi. Fuqarolik kodeksiga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar natijasida ular to'rtta holatga keltirilgan.

SHu o'rinda nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar ham yuridik fakt bo'lib hisoblanishini alohida ko'rsatish lozim. CHunki nikohni rasmiylashtirish jarayonida nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarning mavjud bo'lmasligi o'ziyiq yuridik fakt hisoblanadi (masalan, nikohlanuvchi shaxslarning yaqin qarindosh bo'lmasliklari).

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritib, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarni ham alohida yuridik fakt ekanligini normalash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. CHunki nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar ham bir vaqtning o'zida huquq va burchalarni vujudga keltirmoqda, o'zgartirmoqda va bekor qilmoqda.

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 12-апрелдаги 171-сонли қарори билан тасдиқланган Фуқаролик ҳолати далолатномаларини қайд этиш қоидалари.-Т.:Адолат.-1999 й.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida yakka nikohlilik tamoyilining mustahkamlanganligi, jamiyatning axloqiy qoidalariga mos kelishi va uni taraqqiyotning yuqori bosqichidagi nikoh oila munosabatlarining talablariga javob berishi ko'pgina mualliflar tomonidan ta'kidlangan.

Nikoh tuzish shartlariga rioya qilinmasdan tuzilgan nikoh nikohni haqiqiy emas deb hisoblashdan tashqari, qonunni buzgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi. Mazkur holat Jinoyat kodeksining 126-moddasida ko'rsatilgan ko'p xotinlik, ya'ni umumiy ro'zg'or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashash eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yohud uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanishi kabi oqibatlariga olib kelishligi belgilangan¹.

Oila kodeksining 16-modda 1-qismida belgilangan qoida buzilganligi aniqlangan taqdirda, Jinoyat kodeksining 126- moddasiga muvofiq, aybdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Biroq, bu huquqiy me'yorda "ko'p xotinlik bo'lish, ya'ni umumiy ro'zg'or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashash" to'g'risida fikr yuritiladi. Bu huquqiy me'yorda ro'yxatga olingan boshqa nikohda bo'lishlik nazarda tutilmasdan, faqat umumiy ro'zg'or asosida yashaydigan shaxslarni "ko'p xotinli" deb hisoblash nazarda tutiladi.

Oila kodeksidagi nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarni Jinoyat kodeksining 126-moddasi normalari bilan hamohang bo'lishini nazarda tutgan holda, shuningdek Jinoyat kodeksining mazmunida o'z ifodasini topmaganligi va buni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 126-moddasini quyidagi tahrirda bayon qilishni taklif etamiz: "Ko'p xotinlik bo'lish uchun er ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan, umumiy ro'zg'or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashagan bo'lishi lozim".

Fikrimizcha, ushbu taklif qilinayotgan norma oila qonunchiligi normalarini Jinoyat qonunchiligi normalari bilan bir-birini to'ldiradi, hamda yakka nikohlilik tamoyilini buzilishini oldini olishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодекси. –Т.: Адолат. 2006 й.

Fikrimizni asoslash uchun quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz. Masalan, 1999 yilda faqat Respublika sudlari tomonidan 15.803 ta ajralish yo'li bilan tugallangan nikoh – bu degani har 100.000 ta aholi soniga – 105 ta ayol o'z turmush o'rtog'isiz yolg'iz bo'lib qolgan.

Bundan tashqari, voyaga etmagan bolalarga aliment undirish haqida 21.309 ta sudning hal qiluv qarori chiqarilgan – bu degani 21.309 ta yolg'iz ayollar aliment undirish masalasi bilan sudlarga murojaat qilganlar.

R.Muhamedovning fikricha, yakka xotinlik (monagam nikoh) yoki ko'p nikohlilik (poligam nikoh) masalasi doimiy ravishda munozaralarga sabab bo'lib kelishini ko'rsatadi¹.

R.Muhamedov o'z fikrini davom ettirib, monagam nikoh er-xotinlarning kelgusida farzandlari sog'lom va baquvvat bo'lib dunyoga kelishini, er-xotinlar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarni normal tarzda kechishini, shuningdek er va xotinlar o'rtasida uchrab turadigan jinsiy organlar orqali yuqadigan kasalliklar holatini vujudga kelish ehtimoli past bo'lishini ta'kidlaydi.

Biz ham ushbu fikrlarga to'la qo'shilgan holda, yakka nikohlilik ijobiy natijalarni berishini, shuningdek kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan oilaviy nizolarni, ajralishlar sonini kamayishiga, turli xil kasalliklar va o'lim darajasining pasayishiga olib keladi degan fikrlarni ilgari surmoqchimiz. Chunki ayrim hollarda qonuniy asoslarda yashayotgan er-xotinlarning munosabatlariga putur etishi natijasida ko'p hollarda ayollar aziyat chekib, o'zlarini o'lim darajasigacha yoki ruhiy holatlarida keskin o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi.

Yakka nikohlilik xususida to'xtalib, musulmon huquqining asosiy manbai bo'lgan Qur'oni Karimda ko'p xotinlikka yo'l qo'yish umumiy qoidadan istisno sifatida belgilanganligini ko'rishimiz mumkin. Niso surasining 3-oyatida “Sizlar uchun nikohda halol bo'lgan ayollarga ikkita, uchta, to'rttadan uylanaveringlar. endi agar (ular orasida) adolat qila olmaslikdan qo'rqsangiz bir ayolga uylaning...” yoki qo'l ostingizdagi cho'ri bilan kifoyalaning. Mana shu jabru-zulmga o'tib ketmasligingizga yaqinroq

¹ Р.Мухамедов. Оилада эр-хотиннинг ҳуқуқий муносабатлар. -Т.: Ўзбекистон, 1975. -122 бет.

ishdir”¹ deb ko’rsatilgan. Qur’onning bu oyatini Alouddin Mansur shunday izohlaydi: “Garchi Qur’onda ko’p xotinlikka ruxsat berilsa ham xotinlar o’rtasida adolat qilish shart ekanligi ta’kidlanadi”. Ma’lumki, islomgacha bo’lgan davrda ko’p xotinlilikni chegarasi yo’q edi va hech qanday va shart qo’yilmagandi. Qur’onda u to’rttaga qadar chegara cheklanadi va albatta o’rtada adolat barqaror bo’lishi shart qilib qo’yildi. Modomiki, adolat murod ekan, nima sababdan bir erkakka bir ayol bilan turmush qilish amr etilmadi? Islom ulamolari bu savolga shunday javob qiladilar: ma’lumki islom voqeiy dindir. YA’ni, u insonlarni pokiza hayot kechirishga da’vat qilishda g’ayrivoqeiy yo’llarni tutmaydi. Binobarin, bu qonunda ham voqeiy insoniy hayot nazarda tutilgan. Birinchidan, asrlar davomidagi tajribalarning ko’rsatishicha o’g’il boladan qiz bola ko’proq tug’iladi. Ikkinchidan, ayol kishi erkak kishiga qaraganda ko’proq umr ko’rishi voqeiy haqiqatdir. Uchinchidan, turli fojialar xususan, urush va to’qnashuvlarda asosan erkaklar halok bo’ladilar. Mana shu va boshqa ko’plab sabablar natijasida insoniyat olamida mudom ayollarning sanog’i erkaklarnikidan ortiq bo’ladi. Demak, bir erkak faqat bir ayolga uylanishi mumkin deyilsa, erkaklar sanog’idan ortib qolgan ayollarga zulm qilingan bo’lur edi. YA’ni, bu ayollar o’zlarining turmush qurish va ona bo’lish huquqidan mahrum bo’lib qolar edilar. Natijada jamiyatda nopoklik va maishiy buzuvchiliklar vujudga kelar edi. SHuning uchun Islom ulkan imkoniyatlari bo’lgan kishilarga agar adolat qila olishning uddasidan chiqsalar birdan ortiq ayol bilan turmush qurishga ruxsat beradi va shu yo’l bilan birga ayollar o’rtasida adolat qilmay, faqat shahvoniy nafsini qondirish uchungina ko’p xotin olishga ruju qo’ygan kimsalar uchun oxiratda ashaddiy azob borligi haqida ogohlantiradi.²

Evropalik bir guruh olimlar olib borgan tadqiqotlar natijalariga qaraganda, inson sog’lom bo’lishi, uzoq umr ko’rishi uchun jismoniy mashqlar, dori-darmonlar qatorida nikohda ham bo’lishi kerak ekan.

Olimlar ayolidan ayrilgan erkaklar va farzandini yolg’iz o’stirayotgan ayollar ko’proq xastalanishlarini va o’zlarini yomon his qilishlarini aniqladilar. Bundan

¹ Куръони Карим. Т.: Чўлпон. - 1992 й. -66-67-бетлар.

² Куръони Карим. Нисо сураси. 4-оят. Изох 2. 67-бет.

tashqari, 34 yoshgacha bo'lgan uylanmaganlarga nisbatan 2,5 barobar kamroq. Deyarli shunga yaqin holatni ayollar orasida ham kuzatish mumkin.

Ha, insonning sog'lig'i va o'lim darajasi bir-biri bilan uzviy bog'liq, - deydi professor Myorfi. – Insonning uzoq umr ko'rishi va sog'lom bo'lishi qonuniy nikohda yashashiga ham bevosita bog'langan ekan¹.

¹ Ш.Р.Юлдашева. Никоҳ умрни узайтиради. Ж//Ҳаёт ва қонун.Т.: -2005.-33 бет.

2.2. Yaqin qarindoshlar o'rtasida tuzilgan nikoh

Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar qatoriga qonun nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tug'ishgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasidagi munosabatlarni kiritgan.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksining 57-moddasida qarindoshlik tushunchasi berilgan bo'lib, unga ko'ra, bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanishi, ikki shaxs o'rtasidagi to'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya'ni tug'ilish soni bilan belgilanishi normalanadi.

Nazarimizda, amaldagi Oila kodeksining 16-moddasidagi "nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida" nikoh tuzishga yo'l qo'ymaslik haqidagi qoida aniq berilmagan ko'rinadi.

YUridik adabiyotlarda qarindoshlik tushunchasiga ilmiy ta'rif berishga harakat qilingan bo'lib, kimlar qarindosh bo'lishlari mumkinligi haqidagi fikr-mulohazalar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 57-moddasida qarindoshlikning asosiy belgilari va xususiyatlari ko'rsatilgan. Unga ko'ra bir umumiy shaxsdan (otadan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadilar. Ikki shaxs o'rtasidagi to'g'ri shajara bo'yicha qarindoshchilikning yaqinligi, qarindoshlik darajasi, ya'ni tug'ilish soni bilan belgilanadi.

Qarindoshchilik to'g'ri va yon shajaraga bo'linadi.

Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajarahdagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan-ikkinchi, evvara-katta bobosi, katta buvisiga nisbatan-uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi.

Aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning aka-uka va opa-singillari hamda ularning bolalari, bobo va buvilarning aka-uka hamda opa-singillari va ularning bolalari va shunga o'xshashlar yon shajara bo'yicha qarindoshlar hisoblanadilar.

Oila kodeksining 16-moddasida nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarda quyidagi shaxslar o'rtasidagi nikoh tuzishga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan:

a) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar-bola-ota-ona-bobo-buvi-katta bobo-katta buvi va h.k;

b) tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida;

v) farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida yon shajara bo'yicha yaqin qarindoshlar-tog'a-xola, amaki va jiyanlar o'rtasida nikoh tuzish taqiqlanishi ham Oila kodeksining 16-moddasida o'z ifodasini topishi lozim.

Nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan va yondosh tutashgan qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzilishini taqiqlanishi Qur'oni Karimni "Niso" surasida o'z ifodasini topgan. Bunday holat Xristian dinida ham, YAxudiy dinida ham mavjud. Hat-toki, majusiylilik davrida ham bu gunoh hisoblangan. Sofoklning "SHoh edip" asarida bilmasdan o'z onasiga uylangan va undan farzandlar ko'rgan shoh edip fojiasi yorqin bo'yoqlarda berilgan. Binobarin, bunday nikoh ham axloqiy, ham diniy, ham tibbiy, ham ruhiy-psixologik, ham yuridik jihatdan qoralanadi.

M.V.Krotovning ko'rsatishicha, odatda deyarli barcha hollarda er-xotin o'zining yaqin qarindosh ekanligidan xabari bo'lmaydi. Qonun ushbu holatda nikohni haqiqiy emasligini belgilaydi. Qon-qarindoshlik ob'ektiv holat va uni hech qanday usulda bartaraf etib bo'lmaydi. Demak, bunda nikohni haqiqiy emasligiga nisbatan sanksiya qo'llash mumkin emas.

Darvoqe, ilgari O'zbekiston SSRning nikoh va oila kodeksida qarindoshlik xususida hech qanday norma mavjud emas edi. Har qanday oilaviy munosabatlarni tartibga solishda albatta, qarindoshchilik darajasiga albatta ahamiyat berish lozim. YUqorida ta'kidlaganimizdek, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlardan biri – qarindoshlik darajasining to'g'ri tutashgan bo'lmasligidadir.

SH.SH.SHoraxmetovning fikricha, musulmon huquqida er-xotinning nikoh tuzishga bo'lgan huquq va burchlari alohida belgilab ko'yilgan bo'lib, bu huquq va burchlarning qay yo'sinda bajarish lozimligi ham aniq ko'rsatib berilganligini aniq asoslar orqali ochib berishga harakat qilib, shariatda nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar keng sharhlanib, bunga ko'ra ayol kishining o'z mahramlari doirasiga kiradigan erkaklar bilan nikohga kirishi taqiqlangan, mahramga ko'ra, ayol kishi yuzi ochiq holda ko'rinishi mumkin bo'lgan erkak va yaqin qarindoshlari bo'lib, bular qatoriga masalan,

ayol kishining otasi, o'g'illari, aka-ukalari, amakilari, buvasi, tog'asi, qaynotasi, buva qaynotasi, qaynini va qaynog'alari, urning tog'alari, qaynotaning aka- ukalari mahram hisoblanganligini ilmiy asoslangan holda talqin qiladi¹.

SHariat va amaldagi nikoh tuzishga nasl-nasab shajarasining kiritilishi va bu boradagi asosiy talab oilani mustahkamlash va zurriyotlarning sog'lom, baquvvat bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir.

Ayrim MDH davlatlarining Oila kodekslarida (Ozarbayjon, Belarus respublikalari) agar qiz va o'g'il bolalarning onalari boshqa-boshqa bo'lib nikohdan o'tmagan, otasi bir bo'lsa-yu, ularning otaligi sud tartibida begilangan bo'lmasa ham ularning nikoh tuzishiga qonun yo'l qo'ymagan, chunki unda ota qoni bir ekanligi nazarda tutilgan.

¹ Ш.Шорахметов. Мусулмон ҳуқуқи ва хотин-қизлар ҳимояси. Т. : -Шарқ машғаласи. -1-2-сонлари, 1996, 52-бет

2.3. Muomalaga layoqatsiz shaxslar o'rtasida tuzilgan nikoh

Jamiyatdagi yuksak nufuzi, e'tibori va ahamiyati bois oilaga asosiy Qonunimiz - Konstitutsiyada alohida bob bag'ishlanganligi, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi umume'tirof etilgan huquq normalariga to'la mos ravishda tuzilganligi, ayniqsa, oila – jamiyatning tayanch tuzilmasidir” degan qoidaga asoslangani bejiz emas, albatta.

O'zbekistonda oilani mustahkamlashga, yosh avlodni jismoniy va ruhiy sog'lom qilib tarbiyalashga g'oyat katta ahamiyat berilmoqda. So'ngi yillarda qonun, farmon va qarorlar qabul qilish yo'li bilan amalga oshirilgan tadbirlar oilalarga, ayollarga, ko'p bolali va yolg'iz onalarga, maktab bolalari va talabalarga davlat tomonidan berilgan moddiy va ma'naviy yordamlar sog'lom avlodni tarbiyalash uchun zamin tayyorlamoqda.

Nikoh tuzishga monelik qiladigan hollardan yana biri, nikohlanuvchilardan birining loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, nikoh tuzishga yo'l qo'yilmasligi Oila kodeksining 16-moddasi 3-qismida o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999 yil 14 yanvardagi 18-son qaroriga 2-ilova bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi to'g'risida”gi Nizom¹ga binoan, mazkur organlar asosan aholi salomatligini saqlash va yaxshilashni, sog'lom avlodni tarbiyalash uchun shart-sharoitlarni shakllantirishni, profilaktik sog'liqni saqlashni rivojlantirishni, sog'lom turmush tarzini keng ommalashtirishni ta'minlovchi davlat siyosatini amalga oshiradi.

Ushbu Nizomga muvofiq fuqarolarning sog'liqlari, ularni normal turmush tarzini shakllantirish, kelajak avlodni tarbiyalashda ruhiy sog'lom bo'lmagan xasta bemorlarni ruhiy shifoxonalarda davlat hisobidan bepul imtiyoz asosida davolash vakolati mustahkamlangan. Ushbu Nizom xususida to'xtalib shuni ta'kidlash lozimki, unda sog'liqni saqlash muassasiga murojaat qilgan shaxsning ruhiy holati aniq tavsiflanib, unga ko'ra, kasallikning yuqori yoki past darajada ekanligi ko'rsatilib, aniq isbot va dalillar asosida fuqaroni ruhiy xasta yoki xasta emasligini isbotlab berish normalanadi.

¹ Mazkur Nizomga Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 31 январдаги 53-сонли қарoriga мувофиқ ўзгартиришлар киритилган.

Biz yuqorida bejizga ham “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi to‘g‘risida”gi Nizom xususida to‘xtalganimiz yo‘q. Buning isboti shundaki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25-avgustdagi 365-sonli qarori bilan tasdiqlangan “nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Nizom ham ushbu yuqoridagi Nizom bilan hamohangdir hamda Oila kodeksining 16-moddasida belgilangan ruhiy kasal yoki aqli zaif shaxslar o‘rtasida nikoh tuzishga yo‘l qo‘yilmasligini yanada ham mustahkamlaydi.

Ushbu yuqorida ko‘rsatilgan ikki Nizom asosida nikohlanuvchilar nikohdan o‘tishlari bilan o‘zlarini oila oldidagi majburiyatiga, o‘z xatti-harakatlariga ruhiy holatdan javob berish va uni tushunib etish mumkinligini anglatish, kelajakda er-xotinlik majburiyatlarini amalga oshirishga qanchalik qodir yoki qodir emasliklariga kafolat bo‘lib xizmat qiladi. Nikohlanuvchilar nikoh munosabatlariga kirayotganlarida to‘laqonli ravishda o‘zlarining xatti-harakatlariga javob beradigan bo‘lishlari, ya‘ni muomala layoqatiga ega bo‘lishlari lozim.

SHu o‘rinda SH.R.YUldasheva sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan – sog‘liqni saqlash bo‘limlari vasiylik va homiylik faoliyatini amalga oshirishini ko‘rsatib, FKning 30-moddasiga ko‘ra, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro sud tartibida muomalaga layoqatsiz deb topiladi va bunday fuqaroga nisbatan vasiylik belgilanadi. Fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topishning asosiy mezonlari – o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmasligi yoki ularni boshqara olmasligini ko‘rsatadi¹.

Biz ham SH.R.YUldashevaning fikrlariga qo‘shimcha qilib, shuni ta‘kidlaymizki, sud fuqaroni muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqatini cheklash to‘g‘risida hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan so‘ng uch kun ichida ushbu fuqaroga vasiy yoki homiy tayinlash uchun vasiylik va homiylik organiga murojaat qilishi lozim.

¹ Ш.Р.Юлдашева. Фуқаролик ва оила ҳуқуқида васийлик ва ҳомийликни моҳияти, уни амалга ошириш усуллари. Юридик фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.-Т.:2005.-159 б.

YA.E.Pesinning fikricha, nikohdan o'tuvchilardan birining ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi nikohdan o'tish uchun to'sqinlik qilmasligini, bunga asos qilib, faqat sudning muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi qarori bo'lishi lozimligi va bunday fikrni amaldagi qonunda berilganligini ko'rsatadi¹. Fikrimizcha, bunday fikrga qo'shilishlik mustaqil Respublikamizning kelajak avlodni baquvvat, aqli, zakovatli bo'lishga ayrim salbiy ta'sirini ko'rsatish mumkin,- degan xavotir o'yg'otadi. SHuni ham unutmaslik kerakki, har qanday ruhiy kasallik, aqli zaiflik (u vaqtincha bo'lsa ham) ular sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilish uchun asos bo'lmasa ham nikohdan o'tib oila qurish, nikoh tuzish shartlarini buzadigan holat deb qaralmog'i lozim.

YUqoridagilarga asoslanib, Oila kodeksi 16-moddasi 3-qismini quyidagi taxrirda bayon qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz: "loaqal nikohlanuvchi shaxslardan birining ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi haqidagi tegishli sog'liqni saqlash hamda tibbiy idoralarning muomalaga layoqatsizligini tasdiqlovchi hujjatlari mavjud bo'lgan hollarda nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi, qonun normasi bilan belgilangan holatlar buzilib nikoh tuzilganda, nikohni haqiqiy emas deb topilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi."

A.M.Nechaevaning fikricha, nikohlanuvchilardan biri nikohdan o'tish jarayonida ruhiy kasalligini yashirsa, bunday holatda ishni sudda ko'rishda sud nikohni haqiqiy emas deb topmasdan, balki ajralish yo'li bilan tugallanishi lozimligi² haqidagi fikrlarini quyidagi asoslarga ko'ra maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaymiz. Agar nikohlanuvchilar nikoh tuzish jarayonida o'zlarining jiddiy kasalliklarini yashirsalar, masalan: epilepsiya, shizefraniya, oligrafiya kabi kasalliklardan biri bo'lsa, keyinchalik bu kasallikni aniqlanishi oilaning buzilishiga sabab bo'lishi bilan birga ikkinchi tarafdin moddiy yordam talab etish va qonunda ko'rsatilgan boshqa huquqlardan foydalanishga imkon tug'dirishi adolatdan bo'lmaydi. SHuning uchun bunday nikohlar ham haqiqiy emas deb hisoblanishi lozim.

¹ Я.Е.Песин. Семейно-правовые и процессуальные гарантии прав женщин в СССР. -Алма-Ата.: 1972. Автореф.дисс. на соискание уч.степени д.ю.н. -25 б..

² А.М.Нечаева. Семейное право. -М.: Юрист. 2000. -307 б.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida oilaning yanada mustahkam va barqaror bo'lishi, kelajak naslni sog'lom dunyoga kelishi uchun yangilik sifatida 17-modda kiritilgan bo'lib, u nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishga bag'ishlangan.

Ushbu kodeksga binoan nikohlanuvchi shaxslar davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul asosida tibbiy ko'rikdan o'tishlari, tibbiy ko'rikdan o'tish hajmi va tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi normalanadi. 17-moddaga 2002 yilning 13 dekabrda qo'shimcha va o'zgartirish kiritilgan¹.

Ushbu moddaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgunga qadar 17-modda quyidagi holda amalda bo'lgan. Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek tibbiy-irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalari bo'yicha maslahat berish faqat nikohlanuvchi shaxslarning roziligi bilan davlat sog'liqni saqlash tizimi tomonidan amalga oshirilishi, nikohlanuvchi shaxsning ko'rikdan o'tkazish natijalari shikofor siri hisoblanishi va u nikohlanuvchi boshqa shaxsga faqat ko'rikdan o'tgan shaxsning roziligi bilan bildirilishi mumkinligi belgilangan edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25 avgust 2003 yil 365-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"² Nizomda nikohlanuvchi shaxslar qaysi kasallik turi bo'yicha tibbiy ko'riklarni o'tishlari hamda tibbiy ko'rikdan o'tishning hajmi va tartibi aniq ko'rsatilgan.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 13-modda normasiga to'la mos kelishi maqsadida, 17-modda ikkinchi qism: "Ushbu kodeksning 13-modda beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mavjud bo'lgan taqdirda, nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish talab qilinmaydi", deb normalansa, har ikki moddaning mazmun-mohiyati bir-biriga mos va hamohang bo'lar edi.

Fikrimizcha, Oila kodeksiga kiritilgan 17-modda juda ham o'rinnidir. Chunki hozirgi kunga kelib, amaliyotga nazar tashlaydigan bo'lsak, shunday noxush holatlar

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 йил, 1-сон, 8-модда.

² "Халқ сўзи", 8 февраль. 2003 йил.

yuzaga kelmoqdaki, unda nafaqat er yoki xotin balki buning natijasida dunyoga kelgan begunoh farzandlar jabr ko'rmoqdalar.

2005 yilning 13 sentyabrida Toshkent shahar sudiga fuqaro Azizova Maqsuda nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risida da'vo ariza bilan murojaat qiladi. Da'vo arizada Azizova Maqsuda Azizov Abror bilan 2004 yilning 1 sentyabrida nikoh munosabatiga kirganligini, 2005 yilning avgustida farzandlari Azizov Behruz Vich infektsiyasi bilan dunyoga kelganligini, bunga asosiy sabab, o'zi hamda eri Maqsudov Abror ham ushbu kasallik bilan kasallanganligini ma'lum qiladi. Da'vo arizaning mazmunida Azizova tibbiy ko'rikdan o'tishni javobgar Azizov to'yni tezlashtirilishi natijasida o'zi hal qilganligini, tibbiy ma'lumotnomaga asosan Azizov hamda Matlabova (Azizovning qizlik familiyasi) hech qanday yuqumli kasallik bilan kasallanmaganliklari ko'rsatilgan edi. Buning natijasida ularning nikohlari rasman Toshkent shahar FHDYO organida rasmiylashtirilgan. Oradan ma'lum vaqt o'tib, Azizova o'zining homiladorligini bilganligi va buning natijasida shifokor ko'rigiga borib, kerakli tahlillarni topshirganida unda yuqorida ko'rsatilgan kasallik mavjudligi aniqlangan. Ushbu kasallik eri Azizov A.dan jinsiy organ orqali yuqqanligi tibbiy tekshiruvlar natijasida hamda Azizovning nikohga kirguniga qadar Vich kasalligi bilan kasallanganligida namoyon bo'ladi¹.

Ushbu o'rganilgan aniq isbotlar va taqdim qilingan hujjatlar asosida Azizov va Azizovalarning nikohlari haqiqiy emas deb topiladi hamda Azizov A. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilgan hollar bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi.

O'zbekiston Respublikasida 2007 yil 7 aprelda Oila kodeksining 49-moddasiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonun qabul qilindi². Bunga ko'ra nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odam immuniteti tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda, ikkinchi taraf sudga nikohni haqiqiy emas deb topish haqida talab bilan murojaat qilishga haqli.

¹ Toshkent shahar fuqaroлик ишлари бўйича судининг хал қилув қарори. Т.: 2005 йил. -18 декабрь архив материаллари.

² Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2007 й. 14-сон.133-м.

SHuni ham unutmaslik kerakki, JKning 113-moddasida tanosil kasalliklarini yoki OITS kasalligini tarqatish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bunday holatda nikoh haqiqiy emas deb topish aybdorga nisbatan jinoiy javobgarlik qo'llanilishi, yoxud qo'llanmaganligidan qat'i nazar, sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Biroq, agarda sud JKning 113-moddasiga binoan ayblangan shaxsga nisbatan oqlov hukmi chiqarsa, u holda nikohni haqiqiy emas deb topish haqidagi talabni qo'yib bo'lmaydi (to oqlov hukmi bekor qilingunicha). Agarda sud ayblovi hukmi chiqarsa, u holda nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risida talab qo'ygan shaxs fuqarolik protsessida o'z talabini isbotlash burchidan ozod qilinadi. Tanosil kasalliklari - bu jinsiy yo'l bilan yuqadigan yuqumli kasallik hisoblanadi. Ular jumlasiga sifilis, gonoreya, tripper, jinsiy limfagranulematoz va sh.k kasalliklar kiradi¹. Orttilangan immunitet tanqisligi kasalligi inson organizmini kasalliklarga qarshilik ko'rsatish, himoyalaniish qobiliyatini ishdan chiqaradi. Ushbu asoslarga ko'ra nikohni haqiqiy emas deb topish uchun kasallikni yuqtirgan shaxsni o'zini kasal ekanligini bilgan bo'lishi talab etiladi. Ba`zan kasallikning ochiq belgilari yaqqol namoyon bo'lgan hollarda uni bilishi lozim bo'lganligi faktini aniqlashning o'zi etarli.

Nikohni haqiqiy emas deb topish uchun nikohlanuvchilardan birida yuqumli kasalliklarning mavjudligi emas, balki nikohga kirishda bu kasallikni boshqasidan yashirganligi yuridik ahamiyatga ega deb ko'rsatadi F.M. Otaxo'jaev². Haqiqatan ham, nikoh o'zaro ishonch va sevgiga asoslangan ittifoq. Bunda bir taraf ikkinchi tarafni aldamasligi, ishonchini suiiste`mol qilmasligi shart. Kasallik faktini yashirib oila qurish natijasida boshqa taraf sog'lig'i uchun real xavf vujudga keladi. Holbuki, kelgusida boshqa tarafga kasallik yuqmagani, uni davolanib, sog'ayib ketganlik fakti Oila kodeksi 49-modda 3-qismini qo'llashni rad etish uchun sudlarga asos bo'la olmaydi.

L.Pchelintsevaning fikricha, nikohlanuvchi shaxs o'z kasallik faktini yashirmasa, kasallik fakti yaqqol ko'rinib turgan bo'lsa, bunday holda ushbu asos bilan nikohni haqiqiy emas deb topishni qo'llash mumkin emas³. Albatta, ba`zi hollarda kasallik belgilari aniq ko'rinib turishi mumkin. Masalan, darmonsizlik, tez-tez shamollash, badan-

¹ М.Х.Рустамбаев. Комментарий к Уголовному Кодексу Республики Узбекистан. -Т.: Ўқитувчи. 2004. 79-бет

² Ўзбекистон Республикасининг Оила ҳуқуқи. -Т.: ТДЮИ. 2005. 88 бет.

³ Л.М.Пчелинцева. Семейное право России. - М.: Норма. 2008. 76-бет .

da yara-chaqalar va h.k.larni paydo bo'lishi. Biroq, buni faqat mutaxassis shifokorgina tushunib etishi mumkin. SHu sababli ham oddiy mutaxassis bo'lmagan kishilar bunday alomatlardan bo'lg'usi turmush o'rtog'ini tanosil kasali yoki OITS bilan kasallanganligi haqidagi ma'lumotni ola olmaydi.

G.Inomjonovanning fikricha, nikohni haqiqiy emasligi to'g'risidagi talablarga nisbatan da'vo muddati qo'llanmaydi, chunki bu shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilish bilan bog'liq hisoblanadi va bunda Fuqarolik kodeksining 163-moddasi normallari tatbiq qilinishini ko'rsatadi¹. Darhaqiqat, Fuqarolik hamda Oila huquqida shaxsiy munosabatlarga nisbatan hech qanday da'vo muddati qo'llanilmaydi. Rossiya Federatsiyasi Oila kodeksi 169-moddasi 4-bo'limiga ko'ra, tanosil kasalligi yoxud OITS kasalligini yashirib nikohga kirgan shaxslarga nisbatan nikohni haqiqiy emasligi haqidagi talab er (xotin) xotini (erini) kasalligini yashirganligini bilgan yoki bilishi mumkin bo'lgan kundan boshlab bir yil ichida bildirishi mumkinligi normalanadi². Fikrimizcha, bunday qoida o'rinli va oqilona mazmunga ega emas. CHunki yuqorida ko'rsatilgan kasallik turli ya'ni, teri tanosil va OITS infeksiyasi bilan kasallangan shaxslarning tuzalishi biroz murakkabroqdir Haqiqatan ham, agar insofli taraf o'z huquqini buzilgan deb hisoblasa, bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan e'tiboran da'vo qilishi mumkin. Bunga da'vo muddatini qo'llamaslik oila munosabatlari barqarorligiga xavf manbai bo'ladi (masalan, besh yil yoki o'n yil o'tgandan keyin ham garchi er yoki xotin bu huquqdan foydalanish formal nuqtai nazardan to'g'ridir).

YUqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 55-moddasiga qo'shimcha kiritib, 55-moddaning nomini quyidagicha belgilash lozim: "Nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talablarga nisbatan da'vo muddati" va ushbu moddaning ikkinchi qismi sifatida quyidagi normani kiritish ijobiy holat deb hisoblaymiz.

"Nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talablarga nisbatan da'vo muddati qo'llanilmaydi, ushbu kodeksda va qonunlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

¹ Г.Иномжонова. Эр-хотин ўртасидаги нафақат шахсий, балки мулкый муносабатлар ҳам аниқ вақт чегарасида давом этадиган муносабатлар орасига кирмайди деб кўрсатади//Г.С.Иномжонова. Ота-оналар ва болаларнинг ҳуқуқларини оила-ҳуқуқий ҳимоя қилиш муаммолари. Номзодлик дисс. Автореферати. Т. 2005. 14-бет.

² Л.М.Пчелинцева. Семейное право России. -М.: Норма. 2008. 100-бет.

Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, ayrim kasallik turlari teri tanosil kasalligi yoki OITS kasalligini yashirib nikohga kirish hollarida huquqi buzilgan taraf, vakolatli davlat organi ushbu holatni bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan paytdan boshlab nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat qilishga haqli".

Bunday kasalliklarni inson uchun nihoyatda xavfligini nazarga olgan holda, qonun nafaqat nikohlanuvchilarning huquqlarini himoya qilibgina qolmay, shu bilan birga, bila turib boshqa shaxsni tanosil (venericheskiy) kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirgan va qonunda ko'rsatilgan boshqa hollarda Jinoyat kodeksining 113-moddasi asosida jinoiy javobgarlikka tortish masalasini ham belgilaydi.

XULOSA

Mazkur mavzuni o'rganish, tadqiq qilish asnosida quyidagi xulosalarga keldik. Garchi, nikoh tuzish shartlari oila huquqining alohida instituti bo'lib hisoblansa-da, lekin ushbu institutni, ya'ni nikoh tuzish shartlariga rioya qilmaslikning belgilovchi oila qonunchiligini takomillashtirish muammolari bilan bog'liq bo'lgan holatlar hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. SHu nuqtai nazardan, hamda tadqiqotimizning asosiy qismida o'rganilgan va tadqiq qilingan masalalar asosida quyidagi xulosalarga, ilmiy natijalarga keldik.

1. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar ham yuridik fakt ekanligini isbotlab, nikohni rasmiylashtirish jarayonida nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarning mavjud bo'lmasligi o'ziyoyq yuridik fakt hisoblanishini ko'rsatadi.

Oila kodeksining 16-moddasida nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarda quyidagi shaxslar o'rtasidagi nikoh tuzishga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan:

a) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar-bola-ota-onabobo-buvi-katta bobo-katta buvi va h.k;

b) tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida;

v) farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida.a yon shajara bo'yicha yaqin qarindoshlar-tog'a-xola, amaki va jiyanlar o'rtasida nikoh tuzish taqiqlanishi ham Oila kodeksining 16-moddasida o'z ifodasini topishi lozim.

2. Oila kodeksi 16-moddasi 3-qismini quyidagi taxrirda bayon qilish, maqsadga muvofiqdir:: "loaqal nikohlanuvchi shaxslardan birining ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi haqidagi tegishli sog'liqni saqlash hamda tibbiy idoralarning muomalaga layoqatsizligini tasdiqlovchi hujjatlari mavjud bo'lgan hollarda nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi, qonun normasi bilan belgilangan holatlar buzilib nikoh tuzilganda, nikohni haqiqiy emas deb topilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi."

3. Ayrim kasallik turlari teri tanosil kasalligi yoki OITS kasalligini yashirib nikohga kirish hollarida huquqi buzilgan taraf, vakolatli davlat organi ushbu holatni bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan paytdan boshlab nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat qilishga haqli".

4. Nikoh tuzish shartlarini mustahkamlovchi qonunchilikni takomillashtirish:

-birinchidan, nikoh tuzuvchilarni nikohga nisbatan mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishlarini ta'minlaydi, nikohga kirishishga engiltaklik bilan qarashning oldini oladi;

-ikkinchidan, taraflarni puxta o'ylagan holda, shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymasdan qaror qabul qilishlarini ta'minlaydi;

-uchinchidan, nikoh tuzishda davlat ishtirokini belgilar ekan, nikohga nisbatan nafaqat yuridik fakti, balki jamiyatni yangi tuzilmasini vujudga kelishini rasmiylashtirish jarayoni sifatida e'tirof etadi;

-to'rtinchidan, er-xotin o'rtasidagi huquqiy bog'lanishni amalga oshiradi, ular o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlarga asos soladi, yangi huquqiy maqomini belgilaydi.

Mazkur institutni hayotga keng tadbiiq etish uchun oila qurayotgan fuqarolarni huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, bunda tegishli qonunchilik asosida er-xotin huquq va majburiyatlari, xususan, nikoh shartnomasini tuzish tartiblari, shart-sharoitlari, oqibatlari yuzasidan keng qamrovli targ'ibot ishlarini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. SHu jihatdan olganda, bu borada tegishli qo'llanmalar yaratish, "oila odobi" va "oila huquqi" kurslarini ta'lim muassasalarida o'qitish, mahallalarda tegishli tadbirlar uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Demak, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining muhim bo'g'ini hisoblangan oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, oilani jamiyat hayotidagi o'rnini hamda uning ma'naviyat va tarbiya o'chog'i sifatidagi ahamiyatini oshirish uzluksiz va tizimli jarayon ekanligini unutmasligimiz lozim.

5. Qonunchiligimizda yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh munosabatiga kirishish taqiqlab qo'yilgan bo'lsa-da, amakivachcha, xolavachcha va h.k. shaxslar o'rtasida nikoh munosabatiga kirishishga yo'l qo'yiladi. Lekin, meditsina nuqtai nazaridan bu juda noto'g'ri bo'lib hisoblanadi. CHunki amakivachcha va xolavachchalar ham yaqin qarindoshlar bo'lib hisoblanadilar. Fikrimizcha, ushbu nikoh munosabatlari ham barham berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. CHunki ajralishlarning sababi ham aynan qarindoshlar o'rtasida tuzilayotgan nikoh bo'lib hisoblanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. -Toshkent: O'zbekiston, 1998. -431 b.
2. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. -Toshkent: O'zbekiston, 2000. -528 b.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: O'zbekiston, 2001. -B.23
4. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. -Toshkent: O'zbekiston, 2003. -320 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-yilligiga bag'ishlangan nutqidan. “Halq so'zi, 2007 y.
6. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat engilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.- 120 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2009 yilning yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzasi//I.A.Karimov “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” –Toshkent, O'zbekiston. 2010 y.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi” nomli ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2010 yil, 16 noyabr'
9. Karimov I.A. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir // Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – “Inson va qonun” gazetasi. – 2011 yil 8 dekabr'.
10. Karimov I.A. Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqi. – “Xalq so'zi” gazetasi. – 2012 yil 17 mart.

II. Qonun hujjatlari:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston. 2012. -44 b.
 2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. -T.: Rasmiy nashr. 2010. -496 b.
 3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. -T.: Adolat. 2010. -176 b.
 4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. -T.: Adolat. 2007
 5. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 2007 yil.
 6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. -T.: Adolat.2012. 327 b.
 7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qaydetish qoidalari 12-apreldagi 171-son qarori. (qarorning 2-ilovasi).-T.:Adolat. 1999. -62-82 b.
 8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999 yil 14 yanvardagi 18-son qaroriga 2-ilova bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi to'g'risida"gi Nizom.
 9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog'lig'ini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. -T.:2002. №7.
 10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 1998 yil 11 sentyabr 23-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarining to'plami. 1991-1998. 2-jild. -T.: SHarq. 1999.
 11. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni ko'rishda qonunlarni qo'llash to'g'risida"gi qarori. 1998 yil 11 sentyabr.
- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Fuqarolarni muomalga layoqatsiz deb topish yoki muomala layoqatini cheklash haqidagi fuqarolik ishlari

bo'yicha sud-prokuror amaliyotini umumlashtirish yakunlari haqidagi Ma'lumotnomadan. -T.: 2004. 17 may.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qaydetish qoidolari 12-apreldagi 171-son qarori. (qarorning 2-ilovasi).-T.:Adolat. 1999. -62-82 b.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999 yil 14 yanvardagi 18-son qaroriga 2-ilova bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi to'g'risida"gi Nizom.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog'lig'ini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. - T.:2002. №7.

15. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 1998 yil 11 sentyabr 23-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarining to'plami. 1991-1998. 2-jild. -T.: SHarq. 1999.

16. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni ko'rishda qonunlarni qo'llash to'g'risida"gi qarori. 1998 yil 11 sentyabr.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Fuqarolarni muomalga layoqatsiz deb topish yoki muomala layoqatini cheklash haqidagi fuqarolik ishlari bo'yicha sud-prokuror amaliyotini umumlashtirish yakunlari haqidagi Ma'lumotnomadan. -T.: 2004. 17 may.

III. Maxsus adabiyotlar:

1. Ashurova N. Muomala layoqati.//Hayot va qonun.-Toshkent, 2003. -№2.- B.13-

2. Zokirov I.B. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. -Toshkent: Adolat, 2006.-384 b.

3. Zokirov I., Baratov M. Mulk nima? Mulkdor kim? -Toshkent: TDYUI, 2003. -146 b.
4. Zokirov I., Baratov M. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquq va muomala layoqati. -Toshkent: Adolat, 1998. -112 b.
5. Zokirov I., Oqyulov O., Baratov M. Fuqarolik huquqi: savollar va javoblar. -Toshkent: TDYUI, 2003. -224 b.
6. Караходжаева Д.М. Гражданское право: субъект, объект и содержание правоотношения в условиях рынка. -Ташкент: ТДЮИ, 2004.-104 с.
7. Караходжаева Д.М. Семейное право.-Ташкент, ТГЮИ, 2009.-87 с.
8. Гражданское право (общая часть). Коллектив авторов. –Ташкент, ТГЮИ, 2010.- 67 с.
9. Комментарий к Кодексу о браке и семье. Каз.ССР. -Алма-ата. Казахстан, 1972. –С.24-65.
10. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. /H.Rahmonqulovnnig umumiy tahriri ostida. -Toshkent: Adolat, 2000. -446 b.
11. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. II qism./H.Rahmonqulov va I.Zokirovlarning umum.tahriri ostida. -Toshkent: Adolat. 2007. -529 b.
12. Xalqaro xususiy huquq./ H.Rahmonqulovnnig tahriri ostida. -Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2002. -324 b.
13. Muhamedov R. Oilada er-xotinning huquqiy munosabatlari. -Toshkent: O'zbekiston, 1975. -122 b.
14. Otaxo'jaev F.M. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. -Toshkent: O'zbekiston, 1995. -172 b.
15. Otaxo'jaev F.M. Nikoh tuzxish tartibi va shartlari./Xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga oid qonun kafolatlari. -Toshkent: O'zbekiston, 2000.
16. Otaxo'jaev F.M. Nikohning tugatilishi.//Qonun himoyasida.-Toshkent, 1998. -№12.-B.?
17. Otaxo'jaev F.M. Oila va qonun.//Qonun himoyasida.-Toshkent, 1997. -№6. – B.33-34.

18. Otaxo'jaev F.M. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va oila. - Toshkent: TDYUI, 2002. -132 b.

19. SHomuhamedova Z.SH. Rim xususiy huquqi.-Toshkent: TDYUI, 2002. -154 b.

20. Shorahmetov SH. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi.-Toshkent: Adolat, 2001.-507 b.

21. Yuldasheva SH. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- Toshkent: TDYUI, 2008.-365 b.

IV Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Антокольская М.В. Семейное право. Учебник. -М.: Юрист, 1998. -280 с.

2. Антокольская М.В. Место семейного права в системе отраслей частного права. //Государство и право. -М.: 1995. -№6. -С.30-40.

3. Комментарий к Гражданскому Кодексу Российской Федерации Ч. 1. /отв.ред. О.Н.Садилов-М.: Юринформцентр, 1997.-316 с.

4. Комментарий к Семейному кодексу Российской Федерации./ Отв.ред. И.М.Кузнецова. -М.: 1996. -345 с.

5. Муратова С.А. Семейное право. -М.: Юриспруденция, 2001.-224 с.

V. Dissertatsiyalar va avtoreferatlar:

1. Ataxodjaev F.M. O'zbekiston Respublikasi nikoh to'g'risidagi qonunlarining rivojlanishi va ularni takomillashtirish muammolari. YUrid.fan.dokt.Dis.... -Toshkent: 2000.

2. Esanova Z.N. Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni sudga ko'rishning protsessual xususiyatlari. Yurid.fan.nomz.dis...Avtoreferati. -Toshkent: 2005.- 25 b.

3. Inamdjanova G.S. Ota-onalar va bolalarning huquqlarining oila-huquqiy himoya qilish muammolari. Yurid.fan.nomz.dis.... Avtoreferati. -Toshkent: 2008.-26 b.

4. SHoraxmetova U.SH. Nikoh tuzish shartlariga rioya qilmaslik oqibatlarini belgilovchi qonunchilikni takomillashtirish muammolari. YUrid.fan.nomzd.diss....Avtorefrati.-Toshkent:2008.-16 b.

5. J.Rasulev. Konsullik xizmati tomonidan fuqarolik huquqlarini himoya qilish.Nomzodlik diss. Avtoreferati. T. 2003 y.

V. WEB-resurslar:

1. <http://Allpravo.ru>
2. <http://www.lex.Uz>
3. <http://www.cer.uz>
4. <http://www.gov.uz>
5. <http://www.gki.uz>